

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatparvar.uz

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 10-yanvar
№2 (3116)

O'g'illar ko'ksida chaqnagan chaqmoq,
Oyqizlar ko'nglini gullatgan tuyg'u.
Go'daklar dilidan boshlangan irmoq,
Shoirlar yuragin porlatgan qayg'u.
Vatan bu!
Vatan bu!
Vatan bu!

Eshqobil SHUKUR



6-7 YANGI O'ZBEKISTONNING
MUSTAHKAM QALQONI

8 "ULUG' TURKISTON" DA
MILLIY QO'SHIN MASALASI

16 AVLONIY ASARLARI VA
YOSHLAR TARBIYASI

20 MARDLAR NOMI
BARHAYOT

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz



vatanparvar-bt@mail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi




t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga



BEHBUDIYNING SIYOSIY QARASHLARI

Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ma'rifatparvar ajdodimizning bebaho merosini yanada kengroq o'rganish va targ'ib etish yo'lida muhim hujjat bo'ldi.

Bundan yuz yil muqaddam, to'g'rirog'i, XX asrning boshlarida Turkiston jadidlari faqat badiiy ijod, ilmiy faoliyat, maktab va maorif islohoti masalalari bilangina emas, ayni paytda davlat qurilishiga oid siyosiy-huquqiy masalalar bilan ham shug'ullandi. Buni o'sha davrdagi tarixiy sharoit, xususan Turkiston aholisining, hatto ilg'or qismida ham huquqiy bilimning yo'qligi yoki yetishmasligi taqozo etdi. Shu davrda maktab yoki biror uyushma (*tashkilot*) ochmoqchi bo'lgan kishilar, hatto buning uchun kimdan ruxsat olish va kimning nomiga ariza yozish masalasida ham qiynalib, murakkab vaziyatga tushib qolgan edi. Maktab yoki uyushma yoxud jamiyat ochgan kishilar esa bu muassasaning keyingi faoliyatini tashkil etishda ojiz edi. Vaziyatning ana shunday tus olganini ko'rgan Munavvarqori Abdurashidxonov

1914-yili "Sadoyi Turkiston" gazetasining 14-iyun sonida "Jamiyatlar qanday ochilur?" degan maqola bilan chiqishga majbur bo'ldi. Munavvarqori mazkur maqolasida, masalan, maktab yo jamiyatni ochish uchun ishni nimadan boshlash, uning nizomini qanday tuzish va kimning nomiga ariza yozish hamda bu bilangina kifoyalanmay, tegishli idoralarga bir emas, bir necha marotalab qatnash lozimligini aytgan.

Tarixiy davrning o'zgarishi bilan kishilarda huquqiy bilimning yo'qligi, ayniqsa yaqqol sezildi va shunday bilimga xalq ommasida katta ehtiyoj paydo bo'ldi. Ana shunday sharoitda jadidlar xalqqa ibtidoiy huquqiy ma'lumotlar berish bilan birga jamiyatning huquqiy normalarini ishlab chiqishga ham alohida e'tibor berdilar.

XX ASR BOSHLARIDA Turkiston xalqlarining milliy manfaatlarini chor hukumati oldida himoya etish uchun kamida Rossiya Davlat dumasining yoki Toshkent shahri aholisining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish yoki ko'tarish uchun esa kamida Toshkent shahri dumasining a'zosi bo'lish lozim edi. Chor hokimiyati yillarda markaziy va mahalliy Davlat dumalariga a'zo bo'lgan yerli xalq vakillarining hammasini ham o'zlarining el-yurt oldidagi burchlarini bajargan, deb bo'lmaydi. Lekin ular orasida Mahmudxo'ja Behbudiy singari xalq va mamlakat dardi bilan yashagan siymolar bor ediki, ular Davlat dumasining a'zosi sifatida samarali faoliyat olib bordi.

2001-yili Haarlem (*Niderlandiya*)da nashr etilgan "**Turkistonda yangilik harakatlari va ixtilolar. 1900-1924**" degan to'plamdan ma'lum bo'lishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1907-yilda Rossiya 3-Davlat dumasasi yig'ilishida ko'rib chiqish uchun Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasini tayyorlagan va bu loyihami Davlat dumasining Musulmon fraksiyasiga topshirgan ekan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining sobiq Markaziy Ijroiya qo'mitasi raisi Usmon Xo'jayev (*Usmon Xo'ja 1878-1968*) xotirasiga bag'ishlangan ushbu to'plam uning farzandi doktor Temur Xo'ja o'g'li tomonidan nashrha tayyorlangan.

Mazkur loyiha Mahmudxo'ja Behbudiyning Rossiya Davlat dumasiga taklifi sifatida yozilgani uchun dumaning Musulmon fraksiyasi uni shu sohaga yaqin kishilarga fikr olish uchun bergen va u shunday yo'l bilan Turkiston masalalari bo'yicha taniqli mutaxassis Ismoilbek Gaspiralining qo'liga tushgan. I. Gaspiralining qizi Shafiqaxonim otasining arxivini Turkiyaga olib borib, Anqaradagi doktor Najip Hablemit o'g'liga topshirgan. Doktor Najipbek XXI asr arafasida I. Gaspirali arxividan Behbudiyning loyihasini topib, uni Temur Xo'ja o'g'liga bergen. Shu tarzda loyiha Temurxo'janing tashabbusi va mehnati bilan dastlab Niderlandiyada chop etilgan to'plamda, keyin professor Begali Qosimov yordamida O'zbekistonda "Jahon adabiyoti" jurnalining 2003-yil 8-sonida e'lon qilingan.

Loyihaga yozilgan kirish so'zidan ma'lum bo'lishicha, Behbudiy 2-Davlat dumasining Musulmon fraksiyasiga ham bir necha ma'ruzalar yozib bergen va ularda Turkiston muxtoriyati bilan bog'liq muhim masalalarni ko'targan. Bizningcha, zikr etilayotgan loyihada Behbudiyning o'sha ma'ruzalarda ilgari surgan ayrim fikr va mulohazalari ham

muayyan huquqiy normalar sifatida o'zining yangicha talqinini topgan bo'lishi mumkin.

Loyiha to'qqiz bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Duma xususinda.
2. Rusiya musulmonlari raisi.
3. Turkiston Idorayi ruhoniya va doxiliysi asosining musavaddasi (*qoramasi*) Turkiston Idorayi ruhoniya va doxiliysi xususinda.
4. Idorayi ruhoniya va doxiliya asoslarining xatti-harakati.
5. Idorayi ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.
6. Idorayi ruhoniya va doxiliya mas'uliylari.
7. Turkiston qozilari xususinda.
8. Joniy va badkorlar (*jinoyatchi* va bezorilar).
9. Turkiston yahudiylari va ajnabiylari.

Loyihaning bu qismlari va ulardagi ayrim moddalarini sharhlashdan avval shuni aytish joizki, Behbudiy 18 yoshidan boshlab qozixonada mirzalik qilgan. U shu lavozimda ishslash jarayonida o'zining katta iste'dodini, ruhoniya va doxiliya sohasidagi boy bilimini namoyish etib, qozi va muftiy darajasiga erishgan. Ammo 1899-1900-yillarda haj safari munosabati bilan Arabiston, Misr va Turkiyada bo'lishi hamda bu mamlakatlardagi maktab va madrasa ta'limi bilan tanishish uning hayotini mutlaqo o'zgartirib yubordi. 1903-yildan boshlab Behbudiyning diqqat markazida faqat bir masala – yangi tipdag'i maktab masalasi turdi va shu maktab yordamida Turkiston aholisini chirmab tashlagan bid'at hamda jaholatga qarshi kurashish va xalq ommasi o'rtasida ma'rifat ziyyosini tarqatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Turkistonning ilg'or kishilari safidan o'r'in egallagan Behbudiy 1906-yili Nijniy Novgorodga borib, Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyda ishtirok etdi. Uning mazkur qurultoyda Turkiston musulmonlari guruhiga rahbarlik qilishi va katta nutq so'zlashi yig'ilganlarda yaxshi taassurot qoldiradi. U Rossiya Davlat dumasasi Musulmonlar fraksiyasi a'zolari o'rtasida obro'-e'tibor qozonib, Turkiston muammolarini ular yordamida Davlat dumasiga havola etmoqchi bo'ladi.

Behbudiyning 3-Davlat dumasasi
Musulmonlar fraksiyasiga yo'llagan loyihasining Turkiston madaniy muxtoriyatiga bag'ishlangani
bejiz emas. Professor B. Qosimovning "Jahon adabiyoti" jurnalining zikr etilgan sonida bosilgan kirish so'zida yozishicha, 1- va 2-Davlat dumalarida qizg'in muhokama etilgan masalalardan biri ham muxtoriyat masalasi edi. Ammo muxtoriyat tushunchasi o'sha vaqtida hali siyosiy-ijtimoiy va madaniy mustaqillik ma'nosini anglatmagan. Binobarin, Rossiya musulmonlari madaniy muxtoriyat tushunchasi ostida millat milliy-madaniy turmushining daxilsizligini nazarda tutgan. Bu o'sha davr uchun, shubhasiz, jasoratlari harakat hisoblangan.

ENDI BEVOSITA loyihaning birinchi bo'limiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda asosan Turkiston aholisidan Davlat dumasiga vakil saylanishining huquqiy normalari haqida bahs boradi. Behbudiy bu masalada Turkistonidagi musulmon

aholisining sonidan kelib chiqqan holda vakil saylanishini lozim, deb biladi. Bu muddaga eslatma sifatida aytish lozim, o'sha vaqtida Turkistonda o'rnashib olgan rus aholisining soni (322 ming), mahalliy xalq nufuzi (5 million 378 ming) dan qariyb yigirma marta kam bo'lgan.

Loyihadagi "Rusiya musulmonlari raisi" deb nomlangan ikkinchi bo'lim ma'no-mohiyati quyidagi masalaga qaratilgan: Behbudiyning fikricha, Ummrossiya musulmonlarining diniy va hayotiy ishlarni bajarish hamda barcha ruhoniya va doxiliya idoralariga rahbarlik qilish uchun Peterburgda, ya'n Rossiyaning poytaxtida mahkamayi islomiya tashkil etishi, ham diniy bilim, ham zamonaviy voqealardan yaxshi xabardor musulmonlardan birining bu mahkamaga ma'lum bir muddatga rais etib saylanishi lozim.

Turkiston Idorayı ruhoniya va doxiliyasi masalalariga bag'ishlangan uchinchi bo'lim loyihaning eng katta bo'limi bo'lib, o'n moddadan iborat. **Bu moddalarning asosiy mazmuni quyidagi masalalarni o'z qamroviga olgan:**

1. Sirdaryo, Farg'ona, Samarcand, Yettisuv, Zakaspiysk viloyatlaridan iborat Turkiston uchun bir Idorayı ruhoniya va doxiliya (*Diniy va ichki ishlar idorasini*) ni tashkil etish va bu idorani Toshkent shahrida barpo etib, unga "birinchi darajali ulamo sinfigan shariat va zamondan xabardor kishi"ni saylov yo'li bilan besh yillik muddatga shayx ulislom etib tayinlash.

2. Mazkur idorani quyidagi tartibda tashkil etish: 1 rais - shayx ulislom, 5 diniy alloma - a'lam, 5 oliy va o'rta malumotli musulmon - chilon (a'zo), shuningdek mirzo va sarkotib.

3. A'lam va chilon (a'zo)larni har bir viloyatdan besh yillik muddatga saylov yo'li bilan tayinlash.

4. Idorayı ruhoniya va doxiliya tarkibiga, yuqorida qayd etilgan a'lam va chilon (a'zo)lardan tashqari, barcha mahalliy yahudiylardan bir nafar yahudiy olimni saylov yo'li bilan jaib etish.

5. Turkistonning har bir viloyatida Idorayı ruhoniya va doxiliya shu'balarini ochish va bu shu'balarga viloyat shaharlarining musulmonlar yashaydigan qismidan joy berish.

6. Idorayı ruhoniya va doxiliya shu'basining tarkibini quyidagicha belgilash: 1 raislik qiluvchi - oxund, 3 diniy ulamo - viloyat a'lami, 1 oliy malumotli musulmon - viloyat chilon (a'zosi) va agar lozim topilsa, mirzo (sarkotib).

7. Har bir viloyatda Turkiston Idorayı ruhoniya va doxiliyasi, uning shu'balari va dorulqazo (qozixonasi) hukm va talablarini ijro etadigan ijroiya mahkamasini tuzish.

8. Mahkamaga ma'lumotli musulmonlardan saylov yo'li bilan rais etib tayinlash.

9. Turkistondagi musulmon volost yo'llar boshqaruvchilari, starshina va starshiy (katta) oqsoqollarini ijroiya mahkamaning amirligiga tobe deb hisoblash.

10. Bu idoralarning barchasi shu'bayi ruhoniya va shu'bayi hayotiyaga bo'linadi. Behbudiy Turkiston Idorayı ruhoniya va doxiliyaning rahbariyati va tarkibiy qismalari keng to'xtabgina qolmay, uning faoliyat doirasini ham belgilab bergan. Umuman, loyihaning sharhanayotgan bu birinchi qismida Idorayı ruhoniya va doxiliya masalalari

mualifning diqqat markazida turadi. Buning sababi shundaki, XX asr boshlarida Turkiston aholisi o'rtasida islam dini katta mavqega ega bo'lib, uning ma'naviy va madaniy hayotiga, Behbudiy o'yaganidek, yangi diniy tuzilma - Idorayı ruhoniya va doxiliya orqali ta'sir ko'rsatish va aholining tur mush tarzini shu tuzilma yordamida o'zgartirib borish mumkin edi. Shuning uchun mazkur loyihada Idorayı ruhoniya va doxiliyaning faoliyat va mas'uliyat doirasini quyidagicha belgilangan:

4-bo'lim. Idorayı ruhoniya va doxiliya a'zolarining xatti-harakati.

1. Shayx ulislom va oxund - ruhoniya va shar'iy ishlar, a'lamlar - qonun-qoidalari va zamonning zarur ishlari, a'zolar esa turli ishlar bilan shug'ullanadi. Muhim ishlarga viloyat a'lamlari va a'zolar ham chaqirilib, majlis o'tkaziladi. Hatto lozim bo'lganda Rossiyaning Idorayı ruhoniya va muxtoriyatlari tekshirish Umumrossiya musulmonlari raisi mahkamasing vazifasiga kiradi.

2. Turkiston Idorayı ruhoniya va doxiliyasi shu'balari Rossiya Musulmonlari ittifoqi qarorlariga riyoq qiladi.

3. Majlis va idoralarning har bir ishi, hukm hamda qarori shariat qonun va qoidalari doirasida bo'ladi.

4. Turkiston idorayı ruhoniya va doxiliyasi tasarrufidagi shia mazhabiga mansub musulmonlarning rusumi mazhabiyaga oid fatvolari Zakavkaziyadagi shia shayx ulislomi majlisining roziligi bilan kuchga kiradi.

5. Mahalliy aholi jamiyatlar bu idoralarning ruhoniya va hayotiy shu'balari to'g'risida ma'lumot olish, taftish qilish va hisob so'rashga haqlidir.

5-bo'lim. Idorayı ruhoniya va doxiliya tasarrufindagi ishlar.

Bu bo'limda idoraning faoliyat doirasini o'n ikki moddada belgilangan va ularning asosiyları quyidagilardir:

1. Idora o'z shu'balariga rahbarlik qilish bilan birga ular o'rtasida aloqa o'rnatadi va barcha mahalliy idoralarning ishlarini tartibga soladi.

2. Mahalliy rus mahkamalariga savol bilan murojaat etadi, bu ma'lumotlarning xatti-harakatlariga norozilik bildiradi va tegishli xalq huquqini mahalliy hukumat oldida himoya qiladi.

3. Meros-tug'ilish, bola boqib olish va tarbiyalash, nikoh-taloq, bola saqlab olish, xillas ro'zg'or va oila ishlari, turli ko'chma va ko'chmas mulk hamda nomus da'volari bilan shug'ullanadi.

4. Masjid, madrasa, maktab, vaqf va xayr-saxovat, vasiyat ishlari bilan shug'ullanuvchi mutavalli va nozirlar hamda diniy va dunyoviy tahsil dasturlari, shuningdek maktab va madrasalar tuzilmasini tashkil etadi.

5. Turkiston qozilariga shar'iy, urfiy, tijoriy va zamoniy ishlarni so'ramoqlari uchun hamda jazo uchun dasturilamal va qonunnomalar tasnif etadi.

6. Barcha ruhoniya va milliy, doxiliy maktab xizmatlariga kiradigan shaxslarni imtihon qilib, ular saviyasining yetukligi va haqligi haqida shahodatnomalar beradi.

7. Yer va suv masalasini Turkistonning doxiliy maishat va ahvoli havoysi jug'rofiyasiga muvoqiq suratda xolisona va qonun asosida hal etadi va h.k.

Ko'ramizki, Behbudiy talqinidagi Idorayı ruhoniya va doxiliya Turkiston aholisi hayotining qariyb barcha muammolari bilan shug'ullanish va bu muammolarni shariat amallari asosida hal etish huquqiga ega. U hatto aholidan

tushgan shikoyat va arizalar asosida mahalliy rus mahkamalariga murojaat etishi, ular xatti-harakatiga nisbatan norozilik bildirishi ham mumkinki, bu loyihaning qimmatini yanada oshirgan.

Nihoyat, Idorayı ruhoniya va doxiliyaning javobgarligiga bag'ishlangan so'nggi 6-bo'lim quyidagi masalalarni o'z ichiga olgan:

1. Idorayı ruhoniya va doxiliya shu'balari, ijroiya mahkamasing a'lam va a'zolari hamda qozixona xodimlarining xiyonat va jinovaltari Idorayı ruhoniya va doxiliya mahkamasi tomonidan tekshiriladi.

2. Turkiston Idorayı ruhoniya va doxiliyaning rais, a'lam va a'zolarining jinovaltari taftish komissiyasi tomonidan o'rganiladi. Rossiyaning barcha Idorayı ruhoniya va muxtoriyatlari tekshirish Umumrossiya musulmonlari raisi mahkamasing vazifasiga kiradi.

3. Turkiston Idorayı ruhoniya va doxiliyasi tasarrufidagi shia mazhabiga mansub musulmonlarning xatti-harakati, tasarrufidagi ishlar va mas'uliyati Behbudiy tomonidan shunday mukammallik bilan ishlab chiqilganki, uning ham shariat qonun-qoidalari, ham zamonaviy huquqiy bilimlarni puxta egallagani yaqqol ko'rinish turadi.

7-bo'lim. Turkiston qozilar xususinda.

Behbudiy qozixonada ishlagini va bu sohani mukammal bilgani uchun Turkiston qozilarining huquqiy maqomi va qozilik tizimining huquqiy masalalarini o'n moddada ifodalagan va bu moddalarning asosiyları quyidagilardir:

1. Turkiston qozilar hozirgi tartibda saylanishi, ammo ularning bu lavozimga loyiqliklari Idorayı ruhoniya va doxiliya yoki shu'basining shahodatnomasi bilan tasdiqlanishi lozim. Ularni bo'shatish masalasi ham mazkur idora ixtiyoridadir.

2. Turkiston muzofotidagi hukm chiqaradigan boshqa mansablar tugatilib, ular o'rniiga shar'iy qozilar mansabi joriy etilsin.

3. Har bir voloshtda bir qozixona, har bir qozixonada esa bir qozi va bir muovin mansabi belgilansin.

4. Qozi va muovinining vazifalari hozirgidek xalq tarafidan belgilanib, maoshi Idorayı ruhoniya tomonidan berilsin.

5. Bir qozining hukmidan norozi bo'lgan kishi hozirgidek 4 qozidan iborat kengashga murojaat etsin.

6. Qozilar kengashining hukmi apellyatsiya uchun Idorayı ruhoniyaning qozilariga ko'tarilib, bekor qilinishi yoki rad etilishi mumkin.

7. Qozixonada yoziladigan barcha hujjatlar turkcha (o'zbekcha) yozilib, da'vo va hujjat summasi cheklanmasligi lozim.

8. Turkiston qozilar tomonidan tasdiqlangan barcha vasiqalar, hukm va xatlar Rossiyaning adliya mahkamalari tomonidan e'tiborga olinishi maqsadga muvoqiq va h.k.

Loyihaning "Joniy va badkorlar" ("Jinoyatchi va bezorilar") degan sakizinchli hamda "Turkiston yahudiylari va ajnabiylari" degan to'qqizinchli bo'limlari ham mazkur masalalarga oid ishlarniadolatli hal qilishga qaratilgan moddalardan tashkil topgan. Masalan, agar

turkistonliklar 3 marta o'g'irlik qilgan yoki umumga zarar keltirgan bo'lsalar, ular Idorayı ruhoniyaning xohishi bilan boshqa mahallaga vaqtincha yoki umrbod chiqarilib yuborilishi mumkin.

Behbudiy Idorayı ruhoniya va doxiliya faoliyati bilan bog'liq bu huquqiy qarashlari va takliflarini bayon etgach, hukumat idoralarining faoliyati bilan bog'liq "talab va modda"lardan iborat loyihaning ikkinchi qismini ham Musulmon fraksiyasiga ma'ruza tarzida taqdim etgan. **Bu qism quyidagi to'rt bo'limdan tashkil topgan:**

1. Milliy mahkamalar xususinda.

2. Vaqflar xususinda.

3. Umumiy maktablar.

4. Suv va yerlar xususinda.

"Mulkiy mahkamalar

xususinda" deb nomlangan birinchi bo'limdagi Behbudiyning huquqiy qarashlari mazkur mahkama ishini tubdan qayta qurishga qaratilgani bilan, ayniqsa ahamiyatlidir.

LOYIHADAGI VAQF MASALASIGA BAG'ISHLANGAN

ikkinchi bo'limning maqsad va mohiyati vaqf ishlarni butkul Idorayı ruhoniya ixtiyoriga o'tkazishga qaratilgan. Behbudiy, loyihaning boshqa bo'limlaridan ham ma'lum bo'lganidek, o'lkadagi asosiy ishlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun Idorayı ruhoniya va doxiliyani tuzish hamda hukumat mahkamalari tasarrufidagi bir qator vazifalarni shu idora ixtiyoriga o'tkazish yo'li bilan Turkistonning "madaniy muxtoriyati"ga erishmoqchi bo'lgan.

Yuqorida moddalardan shu narsa ayon bo'ladiki, Behbudiy bir tomonidan, Turkiston Rossiyaning tarkibiy qismiga kirgani holda bu yerda yashovchi musulmonlarning Rossiyanadagi ijtimoiy imtiyozlardan foydalana olmayotganini ko'zda tutib, mahalliy xalqning Rossiyanadagi rus fuqarolari bilan teng huquqları bo'lishi, ikkinchi tomonidan, Turkistonning rus ma'muriyatining rahbarlik huquqlarini chegaralash. Turkistonning "madaniy muxtoriyati"iga erishish yo'llarini axtargan. Behbudiyning bunday intilishlari **loyihaning suv va yer haqidagi bo'limida** ham o'z ifodasini topgan.

Behbudiy 1907-yili noyabr oyida yozilgan bu hujjati bilan Rossiya mustamlakachilik siyosatining Turkistonning kishanlarini bo'shashtirmoqchi bo'lganki, biz bu hujjatda oradan o'n yil o'tgach, 1917-yilda amalga oshgan Turkiston Muxtoriyati g'oyalarining dastlabki sadolarini ko'ramiz. Behbudiyning bu loyihasi bilan Turkistonning mustamlaka davlat tuzumini isloh etmoqchi bo'lgani, shubhasiz. O'lkadagi bir qator hayotiy masalalarning davlat tasarrufida Idorayı ruhoniya va doxiliya ixtiyoriga o'tkazilishi, shuningdek maktab, suv va yer masalalari yuzasidan olg'a surilgan takliflar Behbudiyning o'z davridan kamida o'n yilga ilg'orlab ketganini ko'rsatadi.

Rustam SHARIPOV,
TDSHU Jadidshunoslik ilmiy tadqiqot markazi direktori,
filologiya fanlari doktori

GENDER TENGLIGICA ERISHISHDA MEHNAT MUNOSABATLARI

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda gender tengligi va unga erishish samarali iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omili hisoblanib, ayollarning o'z intilishi va qobiliyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun yanada qulay shart-sharoitlar bilan ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu borada davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi".



Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasining 69-maqсади "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" vazifasi belgilangan bo'lib, quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;

xotin-qizlarning ta'lrim va kasbiy ko'nkmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qibiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;

hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtaida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

turarjoyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;

og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqi, psixologik yordam

ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash.

Boshqa rivojlangan davlatlar singari mamlakatimizda ham gender tenglik munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga bo'lgan ehtiyoj hamda bu masalada davlat darajasidagi e'tibor natijasida 2019-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun qabul qilinishi bilan qonunchilikka bir qator yangi tushunchalar kiritilib, mavjud ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi.

MAMLAKATIMIZDA iqtisodiy islohotlar rivojlanishi davrida ayollar mehnati bo'yicha tashkiliy-huquqiy vazifalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, 2021-yil 28-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur qarorda ham gender tenglikka erishish bo'yicha muhim vazifa va chora-tadbirlarni amalga oshirish rejaliyi yuzasidan vazifalar belgilangan hamda mazkur sohada mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, 2024-yil 10-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi hamda 2024-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda mehnat bozori gender evolyutsiyasi tamoyillari va huquqiy jihatlarini asoslaydi.

E'tirof etish kerakki, gender tenglik masalasi davlat siyosati

darajasiga ko'tarilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan ham alohida chora-tadbirlar belgilanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining 2023-yilning 12-sentabrdagi "Jahon banking "Ayollar va biznes qonun" indeksida O'zbekiston Respublikasining o'mini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi qarori Jahon banking "Ayollar, biznes va qonun" indeksi bilan ishslashda alohida vazifalarni belgilab beradi. Mazkur qarorda xalqaro hamjamiyatni mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik masalalari bo'yicha olib borilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishtirish hamda ilg'or xorijiy tajriba bilan tanishish, malaka oshirish, metodologik va uslubiy ishlanmalar bilan almashish va hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'ZBEKISTON REPUBLIKASIDA ham jahon mamlakatlari singari ijtimoiy muammolar orasida ayollarning ahvolini yaxshilash, ularni mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Parlamentlararo Ittifoqning ma'lumotlariga ko'ra, jahon parlamentida ayollarning ulushi 26,9 foizni tashkil qilib, bu ko'rsatkich bizning mamlakatimizda 32 foizdan 38 foizga o'sdi yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yangi saylangan deputatlar orasida ayollar soni 11 nafarga ko'payib, 48 dan 57 nafarga yetdi.

Dunyo bo'yicha ayollarning iqtisodiy faoliyi eng past ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladigan bo'lsa, mamlakatimiz ayollarining iqtisodiy faoliyi ko'rsatkichi, rivojlangan yoki o'tish davridagi mamlakatlardagi holatdan ancha yuqoridir. O'z navbatida, mamlakat ichki muhitida ayollarning iqtisodiy faoliy darajasi erkaklarnikidan past

bo'lib, bu borada ham alohida chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

MAMLAKATIMIZDA

ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish borasida barcha ijtimoiy va huquqiy sharoitlar yaratilganiga qaramay, bu sohadagi bugungi holat zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sur'atlari talablaridan orqada qolmoqda. Bu vaziyatni yaxshilash uchun gender tenglik masalalari doirasidan chiqish zarur, chunki ularning aksari bozor transformatsiyasi sharoitida mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishining umumiyligi muammolaridan kelib chiqadi, bu esa ayollarning ish bilan bandligi darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun zamonaviy mehnat bozori rivojlanish xususiyatlari va bandlikni tartibga solish bilan bog'liq masalalarda gender mutanosibligi alohida o'rinn egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi T. Norboyeva tomonidan Senat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilashda mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning ta'lrim va kasbiy ko'nkmalar olishlari, tadbirkorlik faoliyatini bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashishga e'tibor qaratildi. Ayniqsa, ayollarning ishga qabul qilinishida hamon mehnat tazyiqlariga uchrayotganlari, erkaklar bilan teng shart-sharoitlar yaratilmayotganini ta'kidlab, ayollarning mehnat qilish huquqini, ishga olinayotgan paytda teng imkoniyatlar, erkin kasb tanlash va ta'lrim olish, mehnat sharoitlarining xavfsizligini saqlash huquqini ta'minlash bo'yicha o'z vaqtida tegishli yo'l-yo'riqlar berib kelmoqda. Mazkur vazifalarning ijrosi ayollarga erkaklar bilan teng ravishda mehnat huquqlaridan foydalanishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Munosabat



“MAHALLA YETTILIGI” KO’MAGIDA

O’zbekiston – ijtimoiy davlat. Bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro’ybga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag’allikni qisqartirish demakdir. Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ushbu tamoyil asosida mehr va ko’mak tizimi aholiga yanada yaqinlashtirildi.

O’tgan yillar tahlili shuni ko’rsatadi, bu soha 30 yil oldingi tizimda qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug’ullangan. Bu ayrim odamlarni o’zini o’nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o’rgatib qo’yan. Misol uchun, mehnatga layoqatlari kishilarga nafaqa to’lab kelingan. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, kasbga o’rgatish orqali hayotga qaytarishga yetarlicha e’tibor berilmagan. Shu bilan birga, har bir oila va inson taqdiringa alohida, professional yondashish mavjud emas edi.

“Mahalla yettiligi” tarkibida ijtimoiy xodim lavozimi yo’lga qo’ylgani ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Ular oilalar bilan alohida ishlab, muhujlarning har biri bo’yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturini yuritmoqda. Bu borada yagona savolnomaga joriy qilinib, xonadonga “mahalla yettiligi”ning qaysi vakili kirishidan qat’i nazar, oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, “ijtimoiy portreti” chiziladi. Yordamdan so’ng xonadonda nima o’zgargani monitoring qilib borilmoqda.

MAHALLALARDA KAMBAG’AL OILALAR QOLMAYDI

Har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag’allikni qisqartirish bosqichidan o’tadi. O’zbekiston ham 2020-yilda aholining muayyan qismi kambag’al ekanini tan olib, ularga madad berishga kirishdi. Moliyaviy-tashkiliy choralar ko’rilib, tizim joriy qilindi. Bu o’z samarasini berib, uzoq yillar og’ir vaziyatda bo’lgan 3 milliondan ziyod odamlarning sharoiti yaxshilandi. Kambag’allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi.

Kelgusi uch yilda kambag’allik darajasini 11 foizdan 7 foizga qisqartirish maqsad qilingan. Shu bois tahlillardan kelib chiqib, kambag’allikni

aniqlash mezonlari va manzilli ro’yxati shakllantirildi. Jumladan, unga “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”dagi hamda kambag’allikka tushish xavfi yuqori bo’lganlar kiritildi.

Kambag’allik omillarini o’rganish uchun ijtimoiy himoya va bandlik masalalarida yagona savolnomaga ishlab chiqildi. Shu asosda oilalarning imkoniyatlari baholanib, 3 ta toifaga ajratildi. Har bir oilaga individual yondashilib, “yoqqa turishi”ga ko’maklashilmoqda. Shu taxlit kambag’allik darajasi yuqori bo’lgan mahallalar ro’yxati ham shakllantirildi. Har yili 50 ta mahalla tanlab olinib, ular kambag’allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirib borilyapti.

Natijalar ko’p kuttirmadi: uch oy oldin viloyat va tumandagi 14 ming nafar rahbar 75 mingta kambag’al oilaga biriktirilib, ular bilan individual ishslash yo’lga qo’yildi. Natijada bu oilalardagi 17 ming odam doimiy ishga joylashtirildi, tadbirkorlik va tomonqa orqali 14 ming aholining daromadi oshirildi. 30 ming bola bog’cha, to’garak va kasbga o’qitish bilan qamrab olindi, 45 ming muhtoj aholiga tibbiy yordam ko’rsatildi.

Yana bir jihat, har yili kambag’allikni qisqartirishga yo’naltirilgan mablag’lar 40 turdag'i moliyaviy vositalar orqali 10 ga yaqin idora tomonidan berilib, yagona yondashuv yo’q edi. Shu bois bu borada yangi tizim yaratilib, mablag’lar **hudud, tuman va mahallalar kesimida** kambag’al oilalar sonidan kelib chiqib taqsimlanishi yo’lga qo’yildi. Bu jarayonda mablag’lar, birlinchini navbatda, oilani kambag’allikdan chiqarishga yo’naltirilyapti. O’z navbatida, kambag’allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar ijrosi bo’yicha 3 bosqichda – mahalla va tuman, viloyat hamda respublika darajasida monitoring tashkil qilindi, jamoatchilik nazorati kuchaytirildi.

1 MILLION 200 MING NAFAR AHOLI KAMBAG’ALLIKDAN CHIQARILADI

Yuqorida yig’ilishda sohadagi ishlar tahvil qilinib, kamchiliklar ko’rsatib o’tildi. Galdagi chora-tadbirlar muhokama qilinib, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirishga doir yangi tashabbuslar bildirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yil ijtimoiy himoya bo’yicha qilingan **34 ta muhim yangilikka qo’shimcha 28 ta yangi tashabbusni ilgari surdi. Avvalo, kelasi yil 1 million 200 ming nafar aholini** kambag’allikdan chiqarish uchun ta’lim, to’garak, kasb-hunar, tibbiyot masalalarini hal qilish va yashash sharoitini yaxshilash zarur.

Kambag’allik yuqori bo’lgan mingta mahallada bittadan oilaviy bog’cha faoliyati yo’lga qo’yiladi. Yangi yildan oilaviy bog’cha o’rinlarining

15 foiziga kambag’al oila farzandlari qabul qilinadi va bog’cha to’lovi qisman qoplab beriladi. Kambag’al oila farzandlarining o’qib, hayotini o’nglashi uchun 118 ming nafari chet tili, axborot texnologiyalari va kasb-hunarga o’qitiladi. Bu to’garaklar xarajati 80 foizgacha byudjetdan qoplanadi.

Kambag’al oilalardagi o’zi harakatlana olmaydigan 23 ming nafar odamga ota-onasi, turmush o’rtog’i yoki bolalari qarab o’tiribdi. Joriy yildan **mahalladagi ijtimoiy xodimlar** va xususiy sektor ishtirokida bu odamlarning 19 mingiga uyida va 4 mingiga kunduzgi qatnov asosida qarab turish yo’lga qo’yiladi. Natijada bu bilan band bo’lgan 15 ming nafar aholining qo’li bo’shab, ishlashi mumkin bo’ladi.

Davlatimiz rahbari yana bir muhim jihatga e’tibor qaratdi. Ya’ni endilikda “Ijtimoiy daftarlari” mablag’i faqat kambag’al oilalarning yashash sharoitini yaxshilash, tibbiyot, ta’lim xizmatlarini ko’rsatish va daromadini oshirishga sarflanishi belgilab berildi. Adolat bo’lishi uchun bu mablag’lar tumandagi kambag’allar soniga qarab taqsimlanadi. Shu bilan birga, daftarlар mablag’ining 30 foizi **mahalladagi uy-joy, yo’l, suv va elektrni yaxshilash** uchun ishlatalidi. Bu mahallalar infratuzilmasini yaxshilashda yana bir imkoniyat sanaladi.

Ayni jarayonda “yettilik” mas’uliyatni zimmasiga olishi, jamoatchilik nazoratini tizimli tashkil etishi zarur. Kinning nimaga muhajojligini mahalladan boshqa birov yaxshi bilmaydi, shunday ekan, haqiqatda ehtiyojmandlarni daftarlarga kiritish, manzilli yordam ko’rsatish ishlarda faollik talab etiladi. Kambag’al oilalardan yaratilayotgan imkoniyatlarni ularga yetkazish, undan samarali foydalanishini ta’minlash ham asosiy vazifalardan.

“Mahalla yettiligi” va hamkor tashkilotlar birdamlikda, hamjihatlikda ish olib borsa, har bir xodim mas’uliyatini anglasa, daxldorlik tuyg’usi bilan yondashsa, Prezident qayd etgan raqam – 1 million 200 ming nafar aholini kambag’allikdan chiqarish muammo bo’lmaydi.

“IJTIMOIY KARTA” JORIY ETILADI

Yig’ilishda ijtimoiy xizmatlarni sodda shaklda ko’rsatish, nogironligi bor shaxslarni qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy yetimlikning oldini olish masalalari tahvil qilindi.

Hozirgi kunda **65 turdag'i ijtimoiy xizmat va yordamlar olish uchun** fuqarolar tug’ilganlik, nogironlik to’g’risida, pensiya, talabalik guvohnomalari, bank kartasi kabi 10 dan ortiq hujjatni olib yurishga majbur. Endi bularning o’rnini bosadigan bitta – “ijtimoiy karta” joriy etiladi. U bilan jamoat transportida bepul yurish, elektr, gaz va o’qish xarajatiga kompensatsiya olish mumkin bo’ladi. Nafaqa va yordam pullari ham shu kartaga tushadi. Bu tizim 1-iyulgacha Toshkent shahri va Yangiyo’l tumanida sinovdan o’tkaziladi, keyinchalik hamma joyda qo’llanadi.

Nogironlikning ayrim turlarida uy sharoitida bajarsa bo’ladigan mashqlarni o’rgatish orqali bemor sog’lig’ini tiklash mumkin. Shuning uchun mahalladagi ijtimoiy xodimlar ularga shunday mashqlar dasturi va sog’lom ovqatlanish menyusi tarqatadi. Milliy gvardiya tajribasi asosida 500 nafar bolani oilaviy bolalar uyiga joylashtirish va ta’lim olishi uchun sharoit yaratiladi. Nazoratsiz va qarosiz bolalar yashashi, o’qishiga ichtisoslashtirilgan maktablar ro’yxati qayta ko’rib chiqiladi, ularda bunday bolalar uchun 5 foiz kvota bo’ladi.

Umuman olganda, Prezident raisligida o’tkazilgan yig’ilishda 2025-yilgi ijtimoiy himoya sohasidagi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu jarayonda “mahalla yettiligi” muhim o’rin tutadi. Boisi yuqorida qayd etilganidek, hozirda 102 ta ijtimoiy xizmat mahalla darajasida ko’rsatilyapti, ijtimoiy yordamlar “yettilik” tavsiyasi asosida taqdim etilyapti.

Har bir kun – ayni yo’nalishdagi sa’y-harakatlarni yanada kuchaytirib, Prezident ishonchi, xalq roziligi yo’lida sidqidildan mehnat qilish fursatidir. Agar birgalikda fidoyilik bilan ishlansa, mahallalarda kambag’allik bo’lmaydi, har bir ijtimoiy yordam o’z egasiga yetib boradi, nogironligi bor shaxslar qulay muhit va sharoitda yashaydi, ijtimoiy yetimlikning oldi olinadi.

Sanjar ISMATOV,
jurnalist

"Ishonchim komil, prokuratura xodimlari qonun himoyasi – bu xalq va Vatan himoyasi kabi muqaddas burch ekanini chuqur anglab, zimmalaridagi g'oyat mas'uliyatli va sharafla vazifani bundan buyon ham samarali ado etadilar".

Shavkat MIRZIYOYEV

YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONI

O'zbekiston – Markaziy Osiyoning eng muhim strategik nuqtasida joylashgan davlat. Tabiiyki, bunday joylashuv mamlakatimizni har jihatdan ishonchli himoya qilish, borgan sari shakl-u shamoyili, uslub va taktikalari o'zgarib borayotgan qurolli tahdidlarga qarshi qo'shinlarni tezkor tayyorlash, erishilgan natijalarni tanqidiy tahlil qilib, milliy armiyani yangi innovatsion texnologiyalar asosida muntazam takomillashtirib borishni talab qildi. Shu nuqtayi nazardan mazkur vazifalar Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Harbiy prokururasi mazkur vazifalarning samarali bajarilishida mustahkam o'rinn tutayotgani tizimdag'i har bir xodimiga iftixor bag'ishlaydi. Harbiy prokuratura organlari xodimlari bir vaqtning o'zida ham harbiy xizmatchi, ham prokuratura xodimi ekanini hisobga olsak, har safar yangi yil kirib kelganidan so'ng ikki shonli sana – O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari hamda Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilgan kunlarning ketma-ket nishonlanishi biz uchun ikki karra g'urur bag'ishlaydi. Ushbu jarayonlar bizga ortda qolgan yilga nazar tashlab, faoliyatimizni sarhisob qilish, yutuqlar va kamchiliklardan xulosha chiqarish, faoliyatimizni takomillashtirish uchun aniq mexanizmlarni belgilashdek mas'uliyatni ham his qildiradi.

XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JON!

Vatanni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash yurting har bir farzandining vazifasidir. Demak, Vatan himoyachilar kuni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki shu yurt koriga yarayotgan har bir yurtdoshimizning bayrami, desak, yanglishmaymiz. "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" degan oliyanob g'oya va tamoyil hamda amaliy harakatlardan barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta'lum-tarbiya muassasalari faoliyati, qo'yingki, keng



jamoatchilik hayotiga singib ketgani ham shunda.

ENG BEBAHO BOYLIK – bu yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi. Notinchlik hukm surgan yurtda begunoh insonlar qurban bo'lib, taraqqiyot to'xtab qoladi, inson qadri toptaladi. Yaqinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizga evaluatsiya qilingan, ayni paytda sihatgohlarimizda davolani, sog'iqliqlarini qayta tiklayotgan **100 nafar** falastinlik kishi, jumladan norasida bolalar ushbu haqiqatni hammadan ko'ra teranroq his qilsa kerak. Ularning boshdan kechirganlarini eshitgan odam borki, mushohada qiladi, munavvar tonglarimiz shukuhini, bolalarning shodon kulgisi naqadar totli ekanini

anglab yetadi. Bebaho ne'matni asrash, xalqimizning osuda hayot kechirishini, Vatan mustaqilligi va suverenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilar va xodimlарidan yanada ogohlik hamda fidoyilikni talab etadi.

Harbiy prokuratura organlari tomonidan Qurolli Kuchlarda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini hamda qonuniyligini ta'minlash bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Avvalo, "**Harbiy prokuratura – armiya prokururasi**" shiori ostida harbiy xizmatchilar hamda xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bunda xodimlarimizning harbiy xizmatchilarga yaqin ko'makchi, huquqiy maslahatchi va maslakdosh bo'lishdek yangicha yondashuv asosida ish tutayotgani fuqarolarning roziligi hamda ishonchi ortishiga sabab bo'lmoqda.

BIR VAQTNING O'ZIDA KO'PLAB YECHIM

Qurolli Kuchlar vazirlig va idoralari rahbarlari bilan hamkorlikda hudozlarga chiqib, ommaviy sayyor qabullar tashkil etildi. Ahamiyatlisi, muqaddam har bir vazirlik alohida o'tkazgan qabuldan farqli o'laroq, bunday qabullarda muammolar taalluqliligi bo'yicha bir vaqtning o'zida bir nechta tizim rahbarlari va mas'ullari tomonidan tinglanmoqda. Tegishliligiga ko'ra, mutasadidilar ishtirokida joyida ko'rib chiqilib, tezkor hal etilmoqda. Muayyan vaqt talab etadigan murojaatlар yuzasidan hamjihatlikda aniq chora-tadbirlar belgilanmoqda. Tabiiyki, samaradorlik ham yuksalayotir. Bu esa murojaat egalariga konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar taqdim etadi.

OILA TINCH – VATAN TINCH

Harbiy xizmatchi bor salohiyati va mahoratini ishga solishi, Vatan himoyasida sobit turishi uchun uning, avvalo, uyidan, oilasidan ko'ngli to'q bo'lishi kerak. Farzandlari sog'lom va qulay sharoitlarda voyaga yetayotgan bo'lishi kerak. Qonunchiligidan esa bularning bari kafolatlangan. Jumladan, xizmat o'tash va yashash uchun harbiylarga munosib shart-sharoitlar yaratish, uy-joy bilan ta'minlash, turarjojni ijara olganlik uchun har oylik tovon puli to'lash, uy-joyni xususiyashtirish, xonardon sotib olish uchun uzoq muddatli imtiyozi ipoteka kreditlari hamda farzandlari uchun oliy ta'lim muassasalariga kirishda alohida kvotalar ajratish kabi qator imtiyozlar berilgan. Keyingi yillarda ushbu huquqlarini amalga oshirish tartibi takomillashtirilayotgani esa faqat va faqat harbiy xizmatchilar manfaatiga xizmat qilmoqda.

Faoliyatimizda xalq bilan ochiq muloqot qilish, aholining, jumladan Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilar va xodimlari, ularning oila a'zolari hamda pensionerlar muammolarini chuqur o'rganish, tezkor hal etish choralarini ko'rish, huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kundalik vazifaga aylangan.

FAOLIYAT TAKOMILI YO'LIDA

Harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish,

yoshlarni vatanparvarlik hamda qonunlarga hurmat ruhidha tarbiyalash, muddatli harbiy xizmatni o'tab, rezervga bo'shatilgan fuqarolarni ishga joylashtirishda harbiy boshqaruv va hokimiyat organlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, faoliyatni raqamlashtirish orqali harbiy xizmatchilarning ijtimoiy hamda moddiy muhofazasi, ularni rag'batlantirish va intizomiy choralar qo'llashning qonuniyligini tahlil qilib borish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nazorat sohasini raqamlashtirish maqsadida tegishli vazirlik va idoralararo "Qurolli Kuchlarda ijtimoiy himoya" elektron platformasi yo'lga qo'yilgan. Bu orqali harbiy xizmatchilarga uy-joy ajratilishida shaffoflik ta'minlanmoqda, korrupsiya holatlarining oldini olish, hujjalarning hay'atlar tomonidan qisqa vaqtda ko'rib chiqilishiga erishish, navbatlarni onlayn kuzatib borish ishlari samarali amalga oshmoqda.

Qurolli Kuchlarga integratsiya qilingan "**Shaffof qurilish**", "**E-xarid**" hamda "**E-auksion**" elektron plattormalari orqali byudjet mablag'lari sarflanishi va davlat mulkidan foydalanan qonuniyligi ustidan nazorat mexanizmlari takomillashtirib borilmoqda.

Fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish, harbiy xizmatchilarning moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq qonunlar ijrosi yuzasidan o'tkazilishi rejalashtirilgan tekshirishlar haqida ular boshlanishidan kamida bir oy avval veb-saytda e'lon qilinmoqda.

OSHKORALIK – MUHIM MEZON

Ochiqlik va oshkorlik – jamiyat va davlat taraqqiyotning muhim omillaridan biri. Faoliyatimizda oshkorlik ta'minlanishi ham tubdan o'zgardi. Harbiy prokururating rasmiy veb-sayti, Facebook, YouTube va Telegram ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida harbiy prokuratura organlari faoliyati yoritib borilmoqda va hozirga qadar ularda 10 mingdan ortiq tadbir haqidagi ma'lumotlar joylangan.

Kadrlar bilan ishslash borasida yo'lga qo'yilgan yangi tendensiya asosida xizmatga qabul qilishda joriy etilgan ochiq tanlovlarida vakant lavozimlar, nomzodlarga talablar, harbiy-kasbiy tanlovlar va ularni o'tkazish tartibi haqidagi ma'lumotlar veb-saytga munzazam joylab borilmoqda. Muhimi, ushbu ochiqlik asosida eng yuqori natijaga erishgan nomzodlar saralanib, munosiblar xizmatga qabul qilinmoqda. Xodimlarning faoliyat samaradorligini baholash (KPI) tizimi amaliyotda keng qo'llanilmoxda.

Veb-saytimizda yaratilgan "**Antikorrupsiya**" sahifasi esa harbiy prokuratura organlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarni doimiy yoritish, qolaversa, fuqarolarga xodimlarning xatti-harakatlari yuzasidan ma'lumot va takliflar berish uchun imkoniyat vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

VATANNI MARDLAR QO'RQLAYDI

Sir emas, bugungi globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi sharotda vatanparvarlik tarbiyasining o'rnini hamda ahamiyati tobora ortib

bormoqda. Davlatimiz rahbarining mamlakatdagi islohotlar jarayoniga yigit-qizlarni keng jalb qilish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar yaratish muhimligiga doimo e'tibor qaratishi ham bejiz emas.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi yangi yo'nalish va vazifalar doirasida o'tgan yil davomida hududiy harbiy prokuratoralarga birkirilgan olis hududlarda joylashgan jami **515 ta** maktabda, shuningdek harbiy ta'limga muassasalarida hamda harbiy akademik litseylarda dolzorb mavzularda **1 300 dan ortiq** "Prokurorlik soati" tadbirni o'tkazildi. Ularda **40 mingdan ziyod** o'quvchi va kursant ishtirok etdi.

"Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!", "El-yurt taqdiri – mening taqdirim" kabi turkum shiorlar ostida o'tkazib kelinayotgan "**Harbiy prokuror va yoshlar**" uchrashuvlari ham yoshlarning qiziqishlarini, muammo va takliflarini o'rganish, ularning huquqiy hamda hayotiy bilim va ko'nikmalarini boyitish ishlarida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Qariyb **20 mingdan ortiq** yoshni qamrab olgan **200 dan ortiq** uchrashuv ham kelajagimiz egalarining manfaatlariga xizmat qildi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 12-yanvarda bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida qator muhim vazifalarni belgilab berilgan edi. Mazkur vazifalar ijrosi doirasida chegaraoldi hududlardagi mahallalarda yoshlar ishtirokida kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda keng miqyosda vatanparvarlik tadbirleri izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, chegaraoldi hududlarda joylashgan mahallalarda yoshlar ishtirokida **600 dan ziyod** vatanparvarlik tadibi o'tkazildi va bularga **150 mingdan ortiq** yosh jalb etildi. Umumta'lum maktablarida harbiy akademik litseylar va oliy harbiy ta'limga muassasalariga o'qishga kirish tartibi haqida tushuntirish-targ'ibot tadbirleri jadal olib borildi.

TO'MARIS-U BARCHINOYLAR, TEMURBEK-U MANGUBERDILAR

Harbiy prokurator tashabbusi bilan respublikamiz bo'ylab olis hududlardagi umumta'lum maktablari o'quvchi-qizlari o'rtasida o'tkazilayotgan "**Men vatanparvarman!**" loyihasining ahamiyatini alohida e'tirof etish o'rinci. Chunki aynan shu tadbirlar yurtimizning navnihol To'marislari, Barchinoylarini yuzaga chiqarmoqda. Bunda Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirlarini, Milliy gvardiya va Qorovul qo'shinlari ayol harbiy xizmatchilarini hamkorligida o'quvchi-qizlarning vatanparvarlik, buyuk xalqimizning boy tarixiy va ma'naviy merosidan faxrlanish, qonunlarga hurmat, huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik ruhidagi nazariy va amaliy bilimlari yanada boyitib borilmoqda.

O'quvchi-yoshlarni yangidan yangi marralarga ilhomlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy tadbirlar izchil davom ettirilib, turli sport musobaqlari, rassomchilik va fan tanlovlar, ijodiy bellashuvlar

muntazam tashkil etib kelinmoqda.

**HARBIY PROKURATURA
TASHABBUSI BILAN** Xalqaro Nordik universiteti va "Intelligence Development Center" ta'limg markazi bilan hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori sovrini" uchun respublikamizdagi "Temurbeklar maktabi", Jaloliddin Manguberdi va "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseylarining **600 nafardan ortiq** 10-sinf o'quvchilari o'rtasida ilk bor matematika fanidan o'tkazilgan tanlov ham shular jumlasidan.

Natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga qarashli "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchisi Turg'un Abdullayev biringchi, Xorazm viloyati Urganch shahridagi Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi o'quvchisi Akbarali O'rolboev ikkinchi va Nukus shahridagi Ichki ishlar vazirligiga qarashli "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchisi Muso Asqarbayev uchinchi o'rinni egalladi. Iqtidorli bolalarni yuzaga chiqarish, ularni qiziqishlari bo'yicha to'g'ri yo'naltirish mamlakat ertasi uchun ham, o'sha o'g'il-qizlarning kelajagi uchun ham birdek

ko'rishi mumkin, deya ta'kidlashadi mutaxassislar. Bunda, albatta oziq-ovqat ta'minoti, sifatli hordiq chiqarish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, yashash va ishslash uchun yetarli sharoit bilan ta'minlanganlik kabi omillar muhim o'rinn tutadi.

**AYNI MAQSADLARDAGI
MAXSUS REJA ASOSIDA**

respublikamiz bo'ylab ko'p bosqichli kompleks tadbirlar yo'liga qo'yilib, olis hududlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarining oila a'zolari hamda ayol harbiylar o'rtasida kasalliklarni, jumladan xotin-qizlar orasida uchraydigan onkologik xastaliklarni barvaqt aniqlashga qaratilgan chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlar o'tkazildi. Qandaydir kasallik belgilari aniqlansa, muammolarni hal etish choralar ko'rildi.

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini hamda xodimlarining yurak, eshitish

18 nafari statsionar davolanishga yotqizildi, boshqalariga shifokor nazoratida bo'lish, ma'lum muddatdan so'ng qayta tekshiruvdan o'tish kabi zarur tibbiy tavsiyalar berildi. Bu hammasi emas. Muhibi, boshlangan yilda ham bu singari chora-tadbirlar davom etadi.

QADDINGIZ TIK, SHARAFINGIZ BUYUK BO'LGIN!

Xalqimiz roziligi yo'lida kecha-yu kunduz fidokorona xizmat qilayotgan barcha prokuratora organlari xodimlarini va faxriyalarini



manfaatlidir.

Mudofaa vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda qator vazirlig va idolar bilan hamkorlikda oliy harbiy ta'limg tashkilotlari kursantlari o'rtasida o'tkazilgan "**Jadidlar – millat fidoyilar**" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi ham shu yo'nalishdagi tadbirlarning amaliy davomi bo'ldi. Tanlovda Qurolli Kuchlar hamda Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyalari, Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi universiteti, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi bojxona instituti jamoalari bellashdi.

Eng muhim, mazkur tanlov jadid bobolarimizning ma'rifatparvar faoliyati va fidokorona xizmatlarini o'rganish, ularning milliy ta'limg va tarbiya tizimini yaratish, yurtimiz istiqboli, xalqimiz ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hissasi hamda g'oyalarni targ'ib etish yo'lida xizmat qildi.

SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

Sog'lon turmush tarziga amal qilish orqali inson 100-120 yoshgacha umr

va nafas olish a'zolarida tug'ma kasalliklari bor farzandlariga zarur tibbiy xizmatlar ko'rsatish borasida va ular bepul muolaja olishlari uchun tizimli tadbirlar olib borilmoqda. Ushbu jabhadagi o'rganishlar davomida nogironligi, tug'ma yurak nuqsoni va boshqa og'ir kasalliklari bois davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar umumiyo ro'yxati shakllantirildi.

Yakunga ko'ra, Harbiy prokurator tashabbusi bilan Bolalar milliy tibbiy markazi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan reja-grafik asosida respublika bo'ylab harbiy xizmatchilarining farzandlari uchun chuqurlashtirilgan bepul tibbiy tekshiruvlar tashkil etilmoqda.

Hozirga qadar markazning malakali shifokorlari tomonidan zamonaliviy tibbiy texnikalar yordamida harbiy xizmatchilarining **300 ga yaqin** farzandi tibbiy tekshiruvlardan o'tkazildi. Ularning **10 ga yaqinida** jarrohlik amaliyoti o'tkazildi, yana

O'zbekiston Respublikasi prokuratora organlari xodimlari kuni bilan samimiy tabriklaymiz.

MILLIY ARMIYAMIZ

SAFLARIDA jasorat va matonat ko'rsatib xizmat qilayotgan, kerak bo'lsa, o'z hayotini bag'ishlab, Vatan himoyasi yo'lida sharafli burchini ado etayotgan barcha harbiy xizmatchilarini va Qurolli Kuchlar faxriyalarini Vatan himoyachilarini kuni bayrami bilan muborakbody etamiz.

Ayni damda shu fikrlar beixtiyor xayoldan o'tadi: inson kasbi, do'sti, umr yo'ldoshi, uyi va boshqa narsalarni tanlashi mumkin. Lekin Vatanni tanlay olmaydi. Vatan in'om etiladi. Shu Vatanda tug'ilish odamning toleyiga bitiladi. Ona yurtni sevib, ardoqlab, sadoqat bilan xizmatida bo'lish esa mardlarga in'om etilgan eng olyi ne'mat.

Mana shunday eng saodatli, o'z o'nida, o'ta mashaqqatli va mas'uliyatli faoliyatingizda barchangizga eng ezgu tilaklarni tilab qolamiz. Hamisha qaddingiz tik, sharafingiz buyuk bo'lsin!

Botir KUDRATXODJAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokurorining o'rinosi –
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokurori



ULUG' TURKISTON'DA MILLIY QO'SHIN MASALASI

Chor mustabidlar zulmi tufayli yuzaga kelgan keskin va beqaror hayot Turkistonda mustamlakachilikka qarshi ozodlik hamda taraqqiyotga olib boradigan ijtimoiy kurashni shakllantirdi. 1917-yilning bahorida chor Rossiyasida yuz bergan inqilobdan, imperiya o'rniga kelgan muvaqqat hukumatdan, e'lon qilingan siyosiy erkinliklardan ilhomlanib, Turkistonda demokratik jarayonlarga boshchilik qiladigan kuchlar dadil maydonga chiqdi. Turkiston jadidlari milliy demokratik kuchlarning o'zagi sifatida o'lka mustaqilligi va taraqqiyotiga bel bog'ladi.

Turkistonga muxtoriyat berish masalasi ilk bor 1917-yilning apreliida musulmonlarning birinchi Butunturkiston qurultoyida muhokama qilindi. 1917-yil 28-noyabrda Qo'qon shahrida o'lka musulmonlarining to'rtinchi favqulodda qurultoyi uzoq munozaralardan keyin Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi. Milliy matbuotimizda Turkistonning taniqli ma'rifatparvarlari, siyosiy va jamoat arboblari xalqimiz hayotidagi bu ulkan voqeani tabriklab, maqolalar yozdi. Masalan, "Hurriyat" gazetasida Fitrat o'z tabrigiga millat dardini qo'shib yozadi: **"Kuchga tayangan har buyrug'a bo'yusundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yashunturdik, iyomonlarimizma avrab saqladik: Turkiston muxtoriyati!"** Bizningcha, kuchga tayangan buyruq haqida gapirganda Fitrat mustabidlarning qo'shini, armiyasini, qonli qilichini nazarda tutgan.

Istiqolning, hurriyatning, erkinlikning kuch bilan o'ralgan zanjirlaridan xalos bo'lish g'oyasi Turkiston muxtoriyati tomonidan qabul qilingan murojaatnomada ham aks etadi: **"...Shunday kun yaqinlashadirki, butun Yer yuzida tinchlik barqaror bo'lib, dunyo xalqlari mavjud kuch ila buzilgan hayotni qayta barpo etishga**

kirishadilar. Mana endi zanjirlardan xalos bo'lgan Turkiston o'z yeriga o'zi xo'jayin bo'lib, tarixini o'zi yaratajak vaqt keldi.

Milliy uyg'onish, milliy g'oya va milliy kurashni boshlab bergen jadidchilik harakati Rossiyada podsho imperiyasi ag'darilgach, ma'rifatparvarlikdan siyosiy kurash maydoniga chiqdi.

Turkistonda jadid tarraqqiyatparvarlarining g'oya va intilishlarini qo'llab-quvvatlaydigan, ularni birlashtiruvchi, moliyalashtiruvchi siyosiy tashkilot mavjud bo'limgan bir sharoitda matbuot jamiyat ijtimoiy ongiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan yagona kuchga aylandi. "Sho'royi Islom", "Najot", "Kengash" kabi jadid gazetalari mazkur harakatning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, maslak va maqsadlarini o'zida aks ettiruvchi maqolalar berdi.

Muxtoriyatchilarining milliy davlatchilik g'oyalari asosan quyidagi masalalarga qaratilgan:

xalqni ma'rifatli qilish;

Turkistonni ilg'or, rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish;

salohiyatlari milliy kadrlar tayyorlash;

iqtisodiyot, fan va madaniyatni rivojlantrish;

ijtimoiy, diniy, etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, barchaga demokratik huquq va erkinliklar berish.

Ilgari surilgan bu masalalar to'laqonli davlat qurish uchun yetarlimi, degan savol o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Turkiston o'sha paytda qanday murakkab siyosiy vaziyat ta'sirida ekanini hisobga oladigan bo'lsak, muxtoriyatning eng birlamchi, ya'ni tez orada hal etilishi kerak bo'lgan masalalarga e'tibor qaratganini anglaysiz. Bunga Mustafo Cho'qay "Yosh Turkiston" jurnalining 1932-yil 27-sonidagi maqolasida izoh berib, "muvaqqat Muxtoriyat hukumatlarining inqilobi vaqtlardag'i prog'romlarini, sobit (doimiy, mustahkam) hukumatlarning prog'romlaridan farqlay olish lozim. Muvaqqat hukumatlarning prog'romlari odatda nihoyatda tor bo'ladi", deydi.

Jadid bobolarimiz hayjon bilan qarshilagan, matbuotda tabriklar yo'llagan Muxtoriyatni saqlab qolish uchun kuch, ya'ni qo'shin bilan bog'liq dolzarb masala qurultoyda ko'rildimi, degan savolga javob izladik. Mustafo Cho'qayning tilga olinayotgan maqolasida bu masalaga ham oydinlik kiritiladi. Unda yozilishicha, qurultoy muvaqqat hukumatga "Janubiy-sharq istiqlolchi qo'shnulari ittifoqi" masalasini muzokara etishni topshiradi. Qo'qon hukumati e'lon etilgani hamono o'z Qurolli Kuchlari (xalq militsiyasi)ni tashkil etish masalasi kun tartibiga chiqadi. Ya'ni muxtoriyat xalqqa demokratik huquq va erkinliklar berishni, uning muhofazasini armiyasiz tasavvur etib bo'lmasligini avvalboshdanoq anglagandi. Demak, Muxtoriyat murojaatnomasida, **jadidlar matbuotida ta'kidlangan "kuch" – milliy qo'shin ozodlikning, hurriyatning qalqoni bo'lishi millatparvarlarimiz g'oyalarida doimo yashab kelgan.** Buni isbotlash uchun milliy qo'shin masalasida jiddiy maqolalar bilan chiqqan jadid Muxtor Bakir faoliyatiga qisqacha to'xtalamiz. Bu haqda Erkin Radjapovning "Turkiston muxtoriyati milliy qo'shini tarixi" maqolasidan muhim ma'lumotlar olindi.

Maqolada keltirilishicha, Muxtor Bakir muxtoriyat e'lon qilingandan keyin tatar ziylolarining "Ulug'

Turkiston" gazetasidagi chiqishlarida armiya masalasiga katta e'tibor qaratadi. Xususan, "Turkiston muxtoriyatining barpo bo'lishiga kuch kerak" nomli maqolada u qurultoyda ko'rilgan bir qator muhim masalalar qatori Muxtoriyat xalq militsiyasini vujudga keltirish hamda Turkistonda yashovchi millatlar tinchligini saqlash maqsadida milliy qo'shin tashkil etish asosiy masalalar qatoridan o'r'in olganini faxr bilan ifoda etadi. Dunyoda, mintaqada, Turkistondagi qaltis harbiy-siyosiy vaziyatni inj a tushungan holda armiya bilan bog'liq masala g'oyatda dolzarb ekanini jamoatchilikka tushuntiradi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmay, muallif mazkur nashrda Turkistonda milliy armiyani shakllantirish, askariy mahkama va tashkilotlar tuzish muammosiga takror qaytadi. "Turkiston Muxtoriyati va turkistonliklar" maqolasida askar va ofitserlar idorasini tashkil etishni turkistonliklar oldida turgan g'oyat ulug' hamda og'ir, lekin muqaddas va mas'uliyatli, eng muhim vazifalardan biri sifatida ta'kidlaydi.

"Muxtoriyat hukumatining vazifasi" nomli maqolasida esa Muxtor Bakir **"Mustabid chor hukumati vaqtida Turkistonga chetdan naqadar ko'p qurolli askar kulturilib tutul erdi. Muxtoriyat e'lon qilinub, idora xalqning o'z qo'lig'a ko'chuv ila bu askarlarga ehtiyoj bitdi. Shuni e'tiborga olib bo'lsa kerak hozir Turkistonning boshqa shaharlarida bo'lg'on askarlar har qaysinisi o'z Vatanlariga qayta boshladilar"**, deb yozadi. Bu bilan muallif, bir tomondan, chor hukumatining, mustabidlarning armiyasi Turkistondan to'la chiqib ketishiga umid bog'lasa, ikkinchi tomondan, endilikda xalq o'z armiyasiga ega bo'lishi kerakligiga ishora qilmoqda.


Shu o'rinda Turkistonda milliy qo'shin muammosi xususida muntazam maqolalar bergan Muxtor Bakir shaxsiyati haqida ham ma'lumot berib o'tsak. Rustam Sharipov "Turkiston jadidchilik harakati tarixidan" o'quv qo'llanmasida Muxtor Bakirni Qozonda tahsil olgan Turkiston jadidlari qatorida tilga olib, uning bir vaqtlar Xiva xoni Isfandiyorxon huzurida muallimlik qilgani, "Mufassal Turkiston jug'rofiyasi" kitobining muallifi, "Ulug' Turkiston" gazetasining bosh muharriri ekanini aytadi.

Fitrat o'zining "Dorilmuallimin ochiluv marosimi" nomli maqolasida Muxtor Bakir afandini tilga olib, tantanada tabrik so'zi aytganini yozadi.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent B. Do'stqorayev esa "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligida "Ulug' Turkiston" gazetasini muharriri sifatida keltirib, Kabir Bakir deb qayd etadi. Ziyo Saidning "Tanlangan asarlar" to'plamida ham "Ulug' Turkiston" gazetasini muharriri Kabir Bakir deb tilga olinadi. Muxtor Bakir va Kabir Bakir bitta shaxsmi yoki yo'qmi, bunga tadtqiqotlarda yana oydinlik kiritamiz. Muhim masala bunda emas. Gap millat uchun, Turkiston uchun eng og'riqli masalani o'sha davrda ziylolarimizning dadil olib chiqqanlarida. Turkistonning tom ma'nodagi ozodligida milliy harbiy qo'shinga kuchli ehtiyoj bor ekanini ijtimoiy fikrga baland ovozda aytiganida deb hisoblaymiz.

Alijon SAFAROV,
O'zJOKU kafedra mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Buyuk ajdodlar



MEROSINING TARIXIY VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Mutafakkir falsafa, mantiq, axloq, metafizika, tilshunoslik, tabiatshunoslik, geografiya, matematika, tibbiyat va musiqa bo'yicha 150 ga yaqin risola yozgan Abu Nasr Forobiyning aksariyat asarlari turli davrlarda yo'qolib ketgan va bu boy merosning ozgina qismi bizgacha yetib kelgan. Olim asarlari XI-XII asrlarda butun musulmon dunyosiga tarqalib, keyinchalik Andalusiya (hozirgi Ispaniya)gacha yetib boradi. Andalusiyaliklar Forobiy asarlarini o'rgangan, qo'shni yevropaliklar esa ulami o'qib, aksariyatini o'z tiliga tarjima qilgan.

U o'z asarlarida qadimgi yunon olimlari, xususan Arastuning "Metafizika", "Kategoriya" kabi asosiy asarlariga sharhlar yozgan. Forobiyning Aflaton va Arastu falsafasidagi g'oyalar haqidagi kitobi uning falsafa sohasida yetuk olim ekanini, falsafa fanini chuqur bilganligi isbotlaydi. Forobiy Aristotelning ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini rivojlantirdi, o'z navbatida, "Kemengar gavhari", "Yaxshi shahar aholisining ko'rinishi", "Muammolar mohiyati", "Olimlarning paydo bo'lishi", "Baxtga erishish", "Fozil odamlar shahri", "Davlat arboblari maqollari" kabi ko'plab konstruktiv falsafiy asarlari yozgan. Bu asarlarida Forobiy dunyo, jamiyat, davlat, odamlar munosabatlari haqida zamonadan ilgarilab ketgan fikr-mulohazalar bildiradi.

Forobiy asarlari bugungi kungacha ham o'z ahamiyatini yo'qtGANI yo'q. Forobiyning davlat va uning boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari bugungi jamiyat uchun ham muhimdir. Uning asarları Yevropa Uyg'ونish davrining yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharq va G'arb ilm-fani, qadimiy madaniyati muvaffaqiyatlarida Forobiyning xizmati katta.

Davlatni mustahkamlaydigan, mustaqillikni himoya qiladigan jamiyat qanday bo'lishi kerak? Mutafakkirlarning ezgu jamiyat barpo etish haqidagi g'oyalarini hamisha sivilizatsiyalashgan davlat namunasi va o'chovidir. Kishilik jamiyat qanchalik taraqqiy etmasin, axborot texnologiyalari hukmron bo'lgan bugungi davrda ham ezgulik, insonparvarlik, muruvvatilik ijtimoiy muhitning teranligini belgilab beradi va davlat kelajagini hal qiluvchi qadriyat sifatida tarixiy mavqeini saqlab qoladi.

Jamiyatning asosi va kelajagi milliy tarbiyaga bog'liq, milliy tarbiyasiz shaxs ijtimoiy muhitda shakllanmaydi. Shaxssiz jamiyat davlatga va uning kelajak avlodlariga zarur qadriyatlarni bera olmaydi, o'rta tarixning ma'naviy olamini keyingi davrlarga yetkaza olmaydi, davlat manfaatlarini himoya qila olmaydi. Binobarin, madaniyatli davlatning yuzi uning madaniyati, ijtimoiy muhiti, insonda insoniy fazilatlarining namoyon bo'lishida ko'rindi. Forobiy yozganidek, jamiyatda faqat axloqiy qadriyatlar, xayr-ehson,adolat, halollik, barqarorlik, ezzulik davlat ruhini yuksaltiradi, uni faqat ma'naviy qadriyatlargina asray oladi.

Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida inson bilimidan boshlanib, uning faoliyati (tadbirkorlik), ma'naviy hayoti bilan davom etgan bilim qadriyatlari va turlarini keng tahlil qildi. Mutafakkir fikricha, jamiyatning mustahkamligi, barqarorligi, mustahkamligi e'tiqoddan, insoniyatning tabiat qudratini to'g'ri bilishidan (ta'lomitidan) boshlanadi. Butun olam va insonlar uchun yagona ma'no, bir asos borki, u ham yaratuvchidir. Forobiy ta'lomitida ijod haqiqatdir, haqiqatni to'g'ri bilish, insonning ijod haqiqatini to'g'ri anglash Xudoni to'g'ri bilishda o'z aksini topgan. Buning ma'nosi shundaki, inson qanchalik mashhur bo'lmasin, u daho, qahramon bo'lishidan qat'i nazar, butun insoniyatni o'zgartirsa ham, dunyonni o'zgartirsa olmaydi, tabiatni qayta tiklay olmaydi, keksalnikni yengmaydi.

Shunday qilib, barcha kuch, komillik faqat ijod egasining qudrati bilan mos keladi va u butun ijod egasi bo'lish bilangina individualistik tushunchasini bildiradi. Aqli inson o'z e'tiqodi, diniy bilimi, qobiliyati, tarbiysi, axloqiy fazilatlarini orqali insoniyatga, millatga, dingga munosib xizmat qila olsa, ezzu amallarini avlodlarga qoldira olsa, inson makonida shaxsga erishadi, lekin inson qanchalik zo'r bo'lmasin, u Allohning qiyofasini bila olmaydi. Binobarin, jamiyatning, insoniyat jamiyatining, avlodning tinch-osoyishta hayoti va fazilatini tashkil etuvchi umuminsoniy to'g'ri bilim, diniy savodxonlik va sog'lom fikrdir. Bular hamisha insoniyat madaniyati va sivilizatsiyasining ustunlaridir. Inson axloqiy fazilatlarini orqali insoniyatga, millatga, dingga xizmat qila olsa, avlodlarga ezzu amallar qoldira olsa, jamiyatda shaxsiyatga erishadi.

Forobiy aytadiki, insonni, shu orqali davlatni, avlodni, millatni saqlaydigan narsa mukammal bilimdir. Inson borlig'ining mazmun-mohiyati uning ezguligida ko'rinsa, ezgu jamiyatning kaliti sof din, komil tarbiya, to'g'ri ta'lim-tarbiya orqali avlodlarga yetkaziladi. O'z zamonida ilm va ilmiga ega bo'imasangiz, ilm va ilmingiz bilan yurtingizga yordam bera olmasangiz, taraqqiyot bo'lmaydi. Ijtimoiy muhitdagi taraqqiyot inson borlig'i sohasida ma'naviy rivojlanishdan boshlanadi. Ma'naviy kamolotning asosi to'g'ri bilish, tarix, Vatan, kelajak avlod oldidagi mas'uliyatdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aql-zakovati, bilimi bilan inson olamiga, xalqiga, millatiga, uning dunyosiga xizmat qilishga qodir inson ziyyoli insondir. Haqiqiy (ar'anaviy) dinning o'zi insoniyatdan aql-zakovat talab qiladi. Milliy manfaat, xalq farovonligi yo'lida borayotgan inson ogoh, to'g'ri fe'l-atvorli, sabrli, kuchli, mard bo'lishi kerak. Haqiqiy ziyyoli inson o'zini millatining xizmatkori deb biladi. Dono ajdodlarimiz aytganidek, avlod o'ziga, hayotiga zarar yetkazadigan ishlardan uzoq bo'lgani ma'qul. Insonning to'g'ri va to'g'ri bilimi uning bilimini saqlaydi. Agar jaholat bo'lsa, jamiyatdagi barcha kamchiliklar savodsizlik, adolatsizlik, axloqsizlik tufayli bo'lsa, avlod o'z yurti kelajagi uchun zarur bo'lgan ko'plab imkoniyatlardan mahrum bo'lishi mumkin. Ilm va badiiy xarakter hamisha insonning diniga quvvat beradi. "Agar xayrixoh shahar aholisini oladigan bo'lsak, – deydi Forobiy, – ota-bobolarining qarashlariga ko'ra, ularda shakllangan ruhiy holat ularning ruhini materiyadan ozod qiladi". Inson o'z muhiti, tabiat, jamiyat bilan intellektual aloqada bo'lishi kerak. Intellektual aloqaning eng yuqori ko'rinishi sog'lom fikrdir. Ota-bobolarimiz ona diyorimiz bilan asosli bog'lanishasida avlodlar manfaatlariga xizmat qiladigan madaniyat va tarix yaratdi.

Forobiy g'oyalardan tushunganimiz, davlat xalq va shaxs ma'naviyatining to'liqligi va teranligi bilan mustahkamlandi. Agar avlodning tabiatini yurting avlodning asosi bo'lsa, yuqorida ta'kidlaganimizdek, to'g'ri e'tiqod, to'g'ri bilim, to'g'ri ta'limgartibiya, salomatlik, tabiiy muhit musaffoligi, jamaat muhitida xayr-ehson, bir-biriga nisbatan insonparvarlik, mas'uliyat davlatni go'zallashtiradi. O'z surriyotini to'g'ri tarbiyalab, himoya qila olgan yurting avlodni o'z yurtini himoya qiladi. Har holda, inson tabiatini va ijtimoiy hayotidagi sun'iylik xayrixoh muhit tabiatiga yotdir. Mutafakkirning fikricha, "Ko'r-ko'rona qahramonlik qahramonlikka, isrofarchilik saxovatga, hazilmutoyiba o'tkir tilga, badjahllik do'stlilikka, o'zini kamsitish kamtarlikka, uyatchanlik halollikka o'xshaydi. Jiddiy ishda jasoratsizligimiz, tabiatimizda moyil bo'lgan ochko'zligimiz bunga misoldir".

Jamoat muhitida odamlarning bir-biriga munosabati asosidagi haqiqiylik milliy o'ziga xoslik darajasini oshiradi. Mamlakat manfaati bilan bog'liq muammolarni soxta narsalar bilan hal qilib bo'lmaydi. Samimiyat, to'g'ri xarakter, shubhasiz, o'sib kelayotgan avlodning to'g'ri yo'nalishiga (*tarbiyasiga*) hissa qo'shadi. Forobiy fikricha, har bir narsaning chegarasi bor, undan tashqariga hech narsa chiqa olmaydi. Masalan, qahramonlikning chegarasi tarixdir, har qanday qahramonlik tarixdan oshib ketmaydi, uning uyasi tarixdir. Xuddi shunday, soxta odatlar jamiyat va zamon doirasidan chiqmaydi, jamiyat ehtiyoji, zamon talabi chinakam xarakterni talab qiladi, ular vaqt kelganda aniqlanib boradi.

Inson hayotining qadri, go'zalligi uning to'plagan boyligi bilan emas, avlodni, yurti uchun qilgan ishlari bilan o'lchanadi. Xuddi shunday, Forobiy falsafasida o'rganilgan xayr-ehson va ezzulik muammolari ham insoniyat uchun umumiy bo'lib, uning tabiatini mohiyatini ochib beruvchi, inson shaxsiyat xususiyatlarini tarix qatlamlaridan olib tashlaydigan qadriyatdir. Rivojlangan davlatni insonni e'zozlagan, asl qadriyatlarini ulug'lagan va asrab-avaylagan, kelajak avlod, denga, el-yurtga, tabiatga hurmat ko'rsatishga o'rgatgan, uning qadriyatlarini meros qilib oladigan yurtgina barpo etadi.

Davlatning xayr-saxovati jamiyat ongingin barcha turlarini (*din, maorif, tarix, madaniyat, san'at, fan, huquq va boshqalar*) saqlagan va undan ehtiyojkorlik bilan foydalana olgan inson jamiyatning ma'naviy boyligidir. Uning faoliyati, vakili shaxsda mehr-muruvvatni uyg'ota oladi, shaxs shaxsiyati davlatni xayrixoh davlat (*shahar*) darajasiga olib chiqadi. Forobiy: "Diniy e'tiqodlari qandaydir eski xurofotlarga asoslangan bo'lsa, shahar johil yoki adashgan shahar bo'lib chiqadi". Ijtimoiy muhitudan ajratilmagan, ta'limgartibiya, e'tiqod, dunyoqarash bilan o'zlashtirilmagan, o'z yurti kelajagini o'z kelajagi bilan uyg'unlashtira oladigan, ajdodlar tajribasiga hurmat bilan qaraydigan inson xayrixoh insondir.

Forobiyning fikricha, birovning taqdiringa ziyon yetkazmaslik, birovning sha'niga, nasl-nasabiga tegmaslik kerak. Agar ijtimoiy muhituda jaholat kuchaysa, jamiyatda beqarorlik yuzaga keladi. O'tmishni o'ylamaydigan, bir-birini qo'llab-quvvatlamaydigan, to'g'ri so'zda to'xtamaydiganlar jaholating o'sishiga yetaklovchilardir.

Forobiy Sharq va G'arb madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari va ta'limgartolarini chuqur o'rganib, insoniyat sivilizatsiyasi kelajagini chuqur anglay olgan mutafakkir edi. U insoniyatga o'zi ulg'aygan muhitudan, sayohat qilgan joylardan to'plagan bilimlarini, din ta'limgartolaridan o'rgangan ilmlarini taqdim etdi va shu orqali insoniyatning yangi sivilizatsiyasi uchun namuna bo'ladigan meros qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy Markaziy Osiyo xalqlarining, balki butun insoniyatning umumiy faxridir. Uning ta'lomitida nafaqat o'z davrining, balki bugungi insoniyat jamiyatining ham manzarasi bor. Forobiyning fikricha, madaniyatning qudrati muzokara qilishdir. Shuning uchun ham davlat va xalq ma'lum yo'nalishda bir-birini qo'llab-quvvatlashi lozim. Kelishuvga erishishing asosiy belgisi tushunish, xalqning davlatni tushunishi, davlatning xalq ahvolini tushunishidir.

Anjuman



VATANPARVARLIKNING O'RNI VA ROLI

Inson omili aralashgan har qanday sohaning rivojlanishi, unda korupsiya, boqimandalik singari salbiy illatlarning barham topishida vatanparvarlik tushunchasi muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan bugun yoshlar ongini harbiy-vatanparvarlik hissi bilan to'yintirishga qaratilgan ishlar salmog'i ortib, ko'lami kengayib bormoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruva apparatida "Yangi O'zbekistonning rivojlanishida vatanparvarlikning o'rni va roli" mavzusida ilmiy-uslubiy anjuman bo'lib o'tdi. Unda okrug boshqaruva apparati ofitserlari, faxriylar, muddatli harbiy xizmatchilar, barcha kuch tuzilmalari vakillari, Qashqadaryo viloyatidagi

oliy ta'lim muassasalarini o'qituvchilar, mahallalarda faoliyat yuritib kelayotgan yoshlar yetakchilarini hamda bir guruh talabalar ishtiroy etdi.

Okrug qo'shninlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov rahbarligida o'tgan anjumanda Surxondaryo, Buxoro hamda Qashqadaryo viloyatlaridagi barcha harbiy qismi va muassasalar,

shuningdek Mudofaa vazirligi Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti hamda Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" jamoasi ham videokonferens-aloha orgali qatnashdi.

Bugun nafaqat milliy armiyamiz salohiyatini oshirish, balki yurt taraqqiyoti, uning har jihatdan yanada yuksalishi har bir inson dildagi vatanparvarlik hissining kamol topishiga bog'liq. Uzoq yillik tajribaga ega ustozlar, fan nomzodlari, dotsentlar tomonidan dolzarb mavzu doirasida qilingan ma'ruzalarda ulug' ma'rifatparvar jadid bobolarimiz qatorida harbiy jadidlar haqida ham izlanishlar olib borilgani va erishilgan ijobji natijalar borasida fikrlar o'rta ga tashlandi.

– "Vatanparvarlik oyligi" jarayonida nafaqat harbiy xizmatchilar, balki harbiy xizmatchilar misolida butun O'zbekiston fuqarolarida harbiy-vatanparvarlik

jadidlar faoliyatini o'rganish maqsadida respublika komissiyasi ishladi va birinchi bosqich yakunlari bo'yicha mamlakatimizda ilk bor "Harbiy jadidlar xotirasи barhayot" nomli kitob-albom nashr qilindi. Ilmiy konferensiya davomida mazkur kitob taqdimotini ham o'tkazdik. Mazmun-mohiyatini qisqacha tushuntirib o'tdik. O'yaymanki, taqdimot anjuman mavzusi bilan chambarchas bog'liq holda, tinglovchilarga ko'plab ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qildi.

Qarshi davlat universiteti talabalari tomonidan "Jadid bobolarimizning ilm-ma'rifat va ma'naviy merosining vatanparvarlik tarbiyasidagi ahamiyati" mavzusida sahna ko'rinishi ham namoyish etildi.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti kafedra boshlig'i polkovnik O'ktam O'rungov



tuyg'usini singdirish masalasi asos qilib belgilangan, – deydi konferensiya o'z ma'ruzasi bilan ishtiroy etgan Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti Bobur Ne'matov. – Yurtboshimiz tomonidan yaqin o'tmishimizda yashagan harbiy jadidlar merosini o'rganish, xalqimizga yetkazish masalasi ham vazifa qilib belgilangan edi. Harbiy

"Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida "O'zbekiston – 2030" strategiyasining islohotlarini amalga oshirishda fuqarolar vatanparvarligining ahamiyati" mavzusida o'z ma'ruzasi bilan ishtiroy etdi.

**Janubi-g'arbiy maxsus
harbiy okrug matbuot xizmati**



VATANGA XIZMAT – OLIY FAZILAT

Bugun yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama ma'nani va jismonan chuqur aqliy bilimga ega bo'lishlari uchun yetarlichha imkoniyat va sharoitlar yaratib berilgan. Quvonarlisi, yoshlarning ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda bilim olishlari, harbiy-vatanparvarlik ruhida kamol topib, kasb tanlashlarida esa Vatan himoyachilarining ham o'rni beqiyos bo'imoqda.

Xususan, Markaziy harbiy okrugda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Vatanparvarlik oyligi" doirasida tizimli ravishda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari kelajagimiz egalari hayotida, orzularida, qarashlarida katta o'zgarishlarga sabab bo'layotgani bilan qimmatlidir.

Oylik doirasida Jizzax, Samarkand, Kattaqo'rg'on va Navoiy garnizonlarida yoshlar bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!", "Vatanga xizmat – oliy fazilat", "Milliy armiyamiz – g'urur iftixorimiz", va "Men ham harbiy bo'laman!" kabi mavzularda uchrashuvlar, davra suhbatlari, harbiy

orkestr ishtiroyidagi konsert dasturlari o'tkazilmoqda.

Muhimi, bunday tadbirlar ming-minglab yoshlarni birlashtirmoqda. Shuningdek, o'g'il-qizlarni buzg'unchi yet g'oyalari ta'siriga tushib qolishdan asrash bilan birga, ularni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ong-u shuuriga Vatan himoyasi sharifi va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishga xizmat qilmoqda.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisasi**




Harbiy jadidlar

QURBONBEK

QURBONBEK JADIDLARNING DO'STI EDI

Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'li 1918-yili Kolesov voqealari davrida Hisorda qo'mondon edi. Unga tegishli farmon yetib borishi bilan yigitlarini olib Buxoro tomon yuradi. Kolesov qo'shini eng so'nggi zamonaviy qurollarga egaligiga qaramay, buxorolik fidoyilarning jasorati va matonati ortidan chekinishga majbur bo'ladi. Biroq shundan so'ng amirlikda jadidlarga qarshi ta'qib avj oladi. Qurbanbek Shamsuddinbek biy o'g'li ham qozikalon Usmonbekning gapi bilan "Yosh buxoroliklar" partiyasi tarafdoi sifatida bir muddat hibsda saqlanadi.

Darhaqiqat, Qurbanbek taraqqiyparvar fikrli jadidchilik qarashlariga moyil inson edi. Ayniqsa, uning yaqin do'stlari Mirzo Nazrullo G'ofur o'g'li (keyinchalik Germaniyada tahsil olib qaytgan Ne'mat Nazrullayevning otasi) va Abduhakim maxzum Obid "Yosh buxoroliklar"ning yetakchilaridan edi. So'roq-savollar natijasida o'zining aybsizligini isbotlab, qamoqdan chiqadi. Ayni paytda davlat birligi va ravnaqi yo'lida "Yosh buxoroliklar"ga qarshi amalgamoshirilayotgan qat'iy choralarining ham to'g'ri emasligini aytib o'tadi.



“Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'li 1882-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Maktab va madrasa tahsilidan so'ng amir qo'shiniga xizmatga olinadi. U 1900-yildan 1920-yilgacha sarkarda sifatida faoliyat olib boradi.

"SESHANBA" GURUHI

Qurbanbek Shamsuddinbek biy o'g'li 1919-yili to'qsabo unvonini olib, 300 askarga boshliq etib tayinlanadi. "Seshanba" deb nomlangan guruhi Eski Buxoroning Qarshi darvozasi yonida joylashgan edi. Guruhda o'zi bilan 4 ta yuzboshi (ofitser) bo'lib, Ali Ahmad miroxo'r, Abdukarim qorovulbegi, Xudiyor qorovulbegilar rahbarlik qilar edi. 1920-yilning avgustida bo'lib o'tgan Qizil armiyaga qarshi hayot-mamot jangida "Seshanba" guruhiqa Qarshi darvozadan Setorayi Mohi Xosagacha bo'lgan hududni qo'riqlash topshirilgan edi. Qurbanbek Shamsuddinbek biy o'g'li boshchiligidagi "Seshanba" guruhining abjir yigitlari Kogon tarafdan kelayotgan qizil askar hamlasini mardona qaytaradi. Guruh tinimsiz o'q yomg'iri ostida mudofaani bir kun mustahkam ushlab turadi. Amir askarlari har jabbada mag'lub bo'lganiga qaramay, guruh askarlari ikkinchi kuni ham jang maydonini tashlab ketmaydi. Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'li g'alabaga hech qanday umid qolmaganini anglagach, askarlarining muqarrar o'limiga ko'zi qiymay, Orifonga chekinishni buyuradi. Qizil askar bularning qarshiligini sindirish uchun oddiy qurolsiz aholini ayovsiz darajada qirg'in qila boshlaydi. Kech soat 10 larga borib, Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'li askarlariga tarqalishni buyuradi.

TOQSABO

"QANI ADOLATLARING!"

Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'li 1925-yil 12-may kuni aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida ayblanib, qamoqqa olinadi. Qiynoq va tahqirlar ostida kechgan so'roqlarda Qurbanbek birorta ayblovni tan olmaydi. Aksincha, 1925-yil 27-iyunda Toshkent shahri, Moskva ko'chasidagi mahbuslar uyidan O'rta Osiyo OO PP GPU rahbariyatiga ariza yo'llab, o'ziga nisbatan noinsoniy, noqonuniy munosabatlarga noroziligini bildiradi. Jumladan, tintuv paytidan uning 50 so'm puli qorovullar tomonidan tortib olib qo'yilgani, kiyimlarining eskirib ketgani va tashqaridan keltirishga ruxsat berishmayotganini o'z arizasida bayon qiladi:

"Bu noinsoniylik, chunki noplak kiyimda namoz o'qib bo'lmaydi. Qanchalab ariza yozayapman, hech biriga javob bo'lmayapti, qaniadolatlarining?!"

HUKUMAT VA CHKNING MUNOSABATI

Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'li "Yosh buxoroliklar"ning azaliy do'sti bo'lgani tufayli inqilobdan so'ng BXR hukumati tomonidan ishga olinadi, soliq ishlari bilan shug'ullanish, tartibga solish uchun Sherobodga yuboriladi. Biroq CHKNing turli aralashuvlari tufayli ishdan voz kechib, o'z xo'jaligida dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydi.

HUKM VA OQLOV

1925-yil 11-iyun kuni Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'li "Askarlar orasida o'ta obro'li, 1920-yili amir bilan ketmagan bo'lsa-da, amirni juda qadrlaydi", deb O'zSSR JKning 67-moddasi bilan ayblanadi. 3 yilga dahshatlari Soloves konslageriga hukm etiladi.

2022-yil 6-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi o'rinnbosari raisligida o'tkazilgan ochiq sud majlisida oltita jinoiy ish doirasida qatag'on qilingan yana 120 nafar vatandoshimiz qatorida Qurbanbek to'qsabo Shamsuddinbek biy o'g'liga nisbatan oqlov hukmi e'lon qilindi.

Harbiy ta'lif

Yurtimizda zamonaviy harbiy aloqa vositalari imkoniyatlarini o'rganish ularni modernizatsiya qilish va faoliyatga tatbiq etish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning negizida sifatli ta'lif, zamonaviy laboratoriya va mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha alohida institut tashkil etildi.



ALOQA KECHA, BUGUN, ERTA...

**QABUL JARAYONI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan tasdiqlangan nizomga asosan, harbiy institutga tanlov asosida respublikaning muhandislik-texnika oliy ta'lif muassasalaridan belgilangan tartibda nomzodlar qabul qilish amalga oshirildi. 2024/2025-o'quv yilida institutda o'qishni davom ettirish istagini bildirgan nomzodlardan – 981 ta ariza kelib tushdi va o'tkazilgan saralash natijasida 76 nafar nomzod o'qishga qabul qilindi. Mazkur o'quv yilida magistratura mutaxassisligi bo'yicha ham kvotalar ochilgan bo'lib, unga sinov asosida 2 nafar tinglovchi qabul qilindi.

**INSTITUT FAOLIYATI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaroriga muvofiq qayta tashkil etilgan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti 2 ta fakultetdan iborat. Institutda 11 ta kafedra bo'lib, unda malakali professor-o'qituvchilar taktik bo'g'indagi ofitser kadrlarni tayyorlamoqda. Bundan tashqari, malaka oshirish, kichik mutaxassislarni tayyorlash hamda rezervdagи ofitserlarni qayta tayyorlash ishlari ham amalga oshirilmoqda. 2023/2024-o'quv yilidan boshlab bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha xorijiy davlat kursantlari ham ushbu ta'lif muassasasida o'qitilyapti. Harbiy institut tashkil etilgandan buyon 8 ta yo'nalish bo'yicha 500 ortiq yosh ofitserni Qurolli Kuchlarga yetkazib berdi.

**O'QUV JARAYONI**

Ta'lim sifatini zamon talablari darajasida tashkillashtirish bo'yicha mutaxassisliklar bilan o'quv rejasi va dasturlariga o'zgartirish kiritilib, unga muvofiq 60-70 foiz mashg'ulotlar amaliy tarzda dala-o'quv maydonlarida o'tkazilmoqda.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetidan harbiy tayyorgarlik, saralash tanlovidan o'tgan 61 nafar talaba zaxira va rezervdagи ofitserlarni tayyorlash kursida harbiy tayyorgarlikdan o'tish uchun qabul qilindi va mashg'ulotlar dars jadvaliga asosan, olib borilmoqda.

Shuningdek, Harbiy tibbiyot akademiyasida operatsion tizimlar xavfsizligi fani doirasida amaliy mashg'ulotlar tashkil qilindi. Amaliy mashg'ulotda Harbiy tibbiyot



umumqo'shin jangida bo'linmalarni amaliy qo'llash, o'qotar quroldan mohirona foydalanish, muhandislik jihozlash, niqoblash, joyning taktik xususiyatini o'rganish va baholash, yakka hamda bo'linma tarkibida umumqo'shin tayyorgarligi me'yorlarini bajarish amalga oshirildi. Aloqa qo'shinlari, axborot tizimlari va texnologiyalari, axborotlarni kriptografik himoyalash va maxsus aloqa, Chegara qo'shinlari intellektual tizimlari kursantlari shaxsiy tarkibi bilan harbiy qism aloqa batalyonni dala aloqa uzeli hamkorligida maxsus-taktik o'quvi o'tkazildi. Unda kursantlar aloqa bo'linmalarini jangovar qo'llash, dala sharoitida mobil aloqa texnikalari va dala aloqa uzellarini yoyish, yig'ish, boshqaruv punktlari o'rtaida aloqani ta'minladi.



"Harbiy aloqa va AKT xabarları" ilmiy-uslubiy hamda "Innovation technosystems" ilmiy texnik jurnallari faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda harbiy institutda 100 ga yaqin xodim ilmiy tadqiqot olib bormoqda. 2024-yilning o'zida 27 nafar mustaqil izlanuvchi oliy ta'lindan keyingi ta'limiga qabul qilindi.

2024-yili harbiy institut huzurida 8 nafar mustaqil izlanuvchi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*) dissertatsiyasini himoya qildi, qolaversa Mudofaa vazirligi miqyosida ilk bora DSc (*fan doktori*) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash ochildi va shu yilning o'zida ikki nafar fan doktori ilmiy darajasi berildi.

Bundan tashqari, professor-o'qituvchilar tomonidan 2024-yilda 84 nomdag'i o'quv adabiyoti yaratildi. Institutning ilmiy ishlari borasida bugungi kunda 102 ta mualliflik guvohnoma va bitta foydali modeli mayjud.

2024-yilning aprel oyida Sankt-Peterburg shahrida joylashgan Marshal Budyonniy Semyon Mixaylovich nomidagi Harbiy aloqa akademiyasida informatika fani bo'yicha VIII xalqaro olimpiada bo'lib o'tdi. Unda informatika fanidan jamoamiz vakillari umumiy tayyorgarlik yo'naliishi bo'yicha faxrli ikkinchi o'rinni qo'lg'a kiritdi.

Harbiy institutda 16 ta laboratoriya xonasi zamonaviy vositalar bilan jihozlangan. Hozirda institut bazasida kursant va o'quvchi-yoshlar uchun "Kompyuter savodxonligi", "Radiotexnik", "Morze", "Cisco", "S/S++" IT Club (*dasturchilar jamoasi*), "Raqamlı texnologiyalar", "Ingliz tili" to'garaklari faoliyat yuritmoqda.

Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, harbiy aloqa tizimlari yangi muammolarga moslashishi va paydo bo'layotgan imkoniyatlardan foydalanishi kerak. Kiberxavfsizlik bo'yicha ilg'or chora-tadbirlar integratsiyasi, sun'iy intellekt va mashinalarni o'rganishni joriy etish, kvant aloqa texnologiyalari rivojlantirish, sun'iy yo'l dosh aloqa tarmoqlarini kengaytirish, 5G texnologiyasidan foydalanish, xavfsiz mobil aloqa yechimlarini joriy etish, o'zaro muvofiqlik va integratsiya ni oshirish aloqa kelajagini ta'minlaydi.

Ushbu tendensiyalarni o'zlashtirigan holda samarali muvofiqlashtirish, strategik rejalashtirish va real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini beruvchi aloqa imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Harbiy faoliyat muhiti rivojlanib borar ekan, kommunikatsiya texnologiyalarining ilg'or tomonida qolish raqobatbardoshlikni saqlash va missiya muvaffaqiyatiga erishish uchun juda muhim hisoblanadi.

Bunday o'zgarishlarga shay holatda turgan Harbiy aloqa instituti jamoasi ilmiy izlanishlar olib borishdan to'xtagani yo'q. Kelajakda har qanday aloqa vositalarini amalda qo'llay oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashning zamonaviy uslublari ustida bosh qotirayotgan jamoaga muvaffaqiyat tilaymiz.

Zero har qanday davrda ma'lumot almashishning eng xavfsiz usullari ustida izlanishlar olib borilgan va olib boriladi ham. Maqsad esa aniq, yovga sir boy bermaslik va uning sirini bilib olishlik yarim g'alaba demak...



akademiyasining kompyuter tarmog'ida domen nazorati va boshqaruv joriy qilindi. O'quv amaliyot mashg'ulotlarida kursantlar maxsus avariya-tiklash boshqarmasi hamda Toshkent harbiy okrugi hududida joylashgan harbiy qislarning mobil aloqa texnikalari ekipajlari tarkibiga taqsimlandi.

Amaliyotda kursantlar "Yig'in" signaliga asosan harakatlanish, yuqori jangovar shaylikka keltirish, belgilangan joylarga dala sharoitida mobil aloqa texnikalarini yoyish, niqoblash, boshqaruv punktlari bilan aloqa turlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha o'z amaliy ko'nikmalarini yanada oshirdi.

Havo hujumidan mudofaa radiotexnika qo'shinlari taktik qo'mondonligi va zenit-raketa qo'shinlari taktik qo'mondonligi kursantlari bilan dala mashg'ulotlari muntazam o'tkazib kelinyapti. Dala mashg'ulotlarining maqsadi kursantlar tomonidan qurollanish va harbiy texnikada ishslash, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari bo'linmalarida jangovar navbatchilikni tashkillashtirish va olib borish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish bo'ldi.

Toshkent harbiy okrugi "Angren" umumqo'shin poligonida dala-o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Unda zamonaviy

ILMIY ISHLAR

Institutda Mudofaa vazirligi va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Institutning ilmiy salohiyati 2019-yilda 9 foizni, 2024-yilga kelib 55 foizni tashkil qilmoqda.

Hozirgi kunda Aloqa harbiy institutida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqot ishlari olib borish hamda ularning natijalarini chop etish maqsadida harbiy ishda informatika va kompyuter texnologiyalari ixtisosligi bo'yicha ilmiy kengash hamda



Chegara qo'shinlarida

ASKAR OTA-ONVALARI SHARAFLANDI!

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan mamlakatimiz bo'ylab harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi madaniy-ma'rifiy, ommaviy sport tadbirleri, festivallar-u forumlar o'tkazilmoqda.



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida joylashgan harbiy qismlar o'ttasidagi onlayn videomuloqot ham ayni shu mazmunda tashkil etildi. "Askar ota-onalarini sharaflaymiz!" mavzusida o'tkazilgan ushbu tadbir davomida mazkur hududlarda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar, ularning ota-onalari, yaqinlari, sifdosh do'stlari va ustozlari jam bo'ldi.

Albatta, yurt himoyasi yo'lida sobit turgan farzandi bilan diyordorlashuv har bir ota-ona qalbiga o'zgacha quvonch, cheksiz hayajon va faxr-iftixon tuyg'ularini bag'ishlashi shubhasiz. Unutilmas lahzalarga boy tarzda kechgan videomuloqot chog'ida ham nuroniy otaxon-u onaxonlar, askar yigitlarning aka-ukalari-yu opasingillari va tengqur do'stlari tomonidan: "O'g'lim, biz sen bilan faxlanamiz!", "Xizmatingni yorug' yuz bilan tamomlab, sog'-salomat

yonimizga qayt", "Akajon, men ham albatta harbiy bo'laman!", "Do'stim, sen bizning faxrimizsan!" kabi so'zlar yangrab, ko'ngillarga iliqlik va xush kayfiyat baxsh etuvchi samimiyl tilaklar aytildi.

- Mening farzandim Surxondaryo viloyatida o'z yigitlik burchini o'tamoqda. Farzandim bilan juda faxrلانaman. Hozir videomuloqotda ko'rdim, kayfiyati ko'tarinki, xuddi yonimizda turgandek. O'g'limni harbiy libosda ko'rib, boshqacha quvonch tuyg'ulari kechdi qalbimdan. Vatanimizga xizmat qilayotganidan xursandman. Tez kunlarda xizmatini yakunlab, yorug' yuz bilan oilamiz bag'riga qaytishini xohlayman. Bugungi o'tkazilayotgan tadbir eng baxtli

kunlarimdan biri bo'lib qoladi, - deydi videomuloqot qatnashchisi Dilafro'z Yangiboyeva.

O'z navbatida, askar o'g'lonlar tomonidan ham harbiylikning sharifi va mas'uliyati, davlat chegaralarini tun-u kun ishonchli qo'riqlash ortida yaqinlarining tinchligi va osoyishta hayoti turganini his etish ularga kuch-g'ayrat va katta shijoat bag'ishlayotgani, haqiqiy hayot maktabi saboqlarini olib, kundan kunga irodalari toblanib borayotgani xususida so'z yuritildi.

Shuningdek, bo'linmalarda muddatli harbiy xizmatchilar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va qulayliklar, berilayotgan imtiyozlar ham

alohibda e'tirof etilib, yaqinlarga yo'llangan sog'inchli salomlar, bayram tabriklari va ijro etilgan kuy-qo'shiqlar vatanparvarlik, yurtga sadoqat hamda mehr-oqibat tuyg'ulari ila yo'g'irdi.

- Surxondaryo viloyatidagi bo'linmalardan birida o'z yigitlik burchimni o'tamoqdamani. Bugun ota-onalarimiz bilan videomuloqot orqali ko'rishdik. Yaqinlarimiz bilan suhbatlashib, jangovar ruhimiz yanada ortdi, - deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Mahmud To'xliyev.

Tadbir davomida farzandini yurt himoyasiga yo'llagan jonkuyar va fidoyi onalar sharaflanib, guldastalar hadya etildi. Har ikki viloyatda ham ota-onalar videomuloqot tashkil etilgan harbiy qismlar hayoti, sarhadlarimiz posbonlari uchun yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar bilan yaqindan tanishib, Yangi O'zbekistonimizning milliy armiyasi kundan kun takomillashib borayotganiga shaxsan guvoh bo'ldi.

Shu kabi ko'ngillarga xush kayfiyat va zavq ulashuvchi tadbirilar mamlakatimizning boshqa hududlarida ham bayramona ruhda tashkil etilmoqda.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Kitobingizni o'qidim



TURKISTON JADIDLARI HAQIDA

yana bir muhim manba



Mazkur kitobda Ikkinci jahon urushi yillari Germaniyada chop etila boshlagan "Milliy Turkiston" jurnalni xususida so'z boradi. Jurnalning 124 (jami 134) ta soni tahlil qilinib, nashr tarixi, jadidlik va siyosiy qatag'onga doir maqolalar bibliografiyasi yoritib berilgan.

Shu kunlarda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Qatag'on qurbanlari xotirasasi" davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Mashhuraxon Darmonovning "Milliy Turkiston": jadidchilik va qatag'on" kitobi nashrdan chiqdi. Mazkur kitobda Ikkinci jahon urushi yillari Germaniyada chop etila boshlagan Turkiston milliy birligi qo'mitasining nashri "Milliy Turkiston" jurnalni xususida so'z boradi. Jurnalning 124 ta soni tahlil qilinib, nashr tarixi, uning tashkilotchilari va yozuvchilarini hayoti hamda faoliyatini, jadidlik va siyosiy qatag'onga doir maqolalar bibliografiyasi yoritib berilgan.

S h u n i n g d e k , j u r n a l sahifalarida e'lon qilingan jadid ma'rifatparvarlarining hayoti hamda ilmiy-adabiy merosi, mustamlaka davri va sovet hokimiyatining zulm hamda zo'ravonliklariga qarshi xalq kurashlarini, turli qo'zg'olonlar, milliy istiqlolchilik harakati, ularning qatag'on qilinishi

haqidagi maqolalardan namunalar keltirish orqali mavzu yanada mukammalroq ochib berilgan.

"MILLIY TURKISTON" JURNALI 1942-yil 15-iyunda Milliy Turkiston birligi qo'mitasining nashr organi sifatida Vali Qayumxon bosh muharrirligi ostida o'z faoliyatini yurita boshlagan. Majmua uch davrda: 1942-1945-yillardagi sonlari Berlinda, oyda 2 marta nashr etilgan. 1945-yili urush tugashi bilan, jurnal ham o'z faoliyatini to'xtatgan. 1949-1954-yillardagi sonlari Jeneva (Shveysariya)da, 1952-1955, 1962-1975-yillardagi sonlari esa Dyusseldorfda chop etilgan.

Ikkinci jahon urushidan so'ng nashrning faoliyati yanada kengayib, dunyoning ko'plab mamlakatlari tarqalgan Turkiston muhajirlari orasida milliy g'oyani tarqatuvchi bordan bir mafkuraviy qurol sifatida ularni ma'nан birlashtirgan edi.

"MILLIY TURKISTON" jurnalining dunyoning barcha mamlakatida o'qilishi uchun bir necha alifbo: o'zbek, arab hamda

ingliz tillarida tarqatilgan. Jurnal o'z vaqtida millionlab turkistonliklar, ayniqsa Afg'oniston, Eron, Sharqiy Turkiston, Yaqin Sharq mamlakatlari, Turkiya va Yevropa davlatlariga tarqalgan. Dunyoga chiqqan turkistonlik ziyoililar sovet hokimiyatining olib borayotgan siyosatiga qarshi uyushma va jamiyatlar tuzib, ular yordamida "Xorijdan eshitirish" harakatini boshlagan. Turkiston haqida jahon afkor ommasini xabardor qilish, Turkiston masalasini tashqi dunyoga tushuntirish bu kurashning eng muhim jihatini tashkil etган.

Kitobdagagi maqolalarni o'rganish va tahlil qilish 1942-1975-yillar orasida Turkistonda yuz bergan tarixiy jarayonlar, sovet hokimiyati Turkistonni qanday shakllantirmoqchi bo'lgani va bu siyosatga turkistonliklarning qarashlarini bilish imkonini beradi. Mashhuraxon Darmonovning mazkur kitobi shu tomoni bilan o'ta muhim manba hisoblanadi. Boisi "Milliy Turkiston" jurnalni Turkiyada Ahad Andijon, Timur Xo'ja o'g'li, Chig'atoy Ko'char va Nurgul Uzunel tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek olimlari tomonidan shu vaqtgacha jiddiy tadqiq etilmagan. Mazkur kitob esa ayni paytda yosh tarixchilar, umuman, milliy tariximiz bilan qiziqqan har qanday inson uchun qimmatli manba hisoblanadi.

**Bahrom IRZAYEV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori**

E'tirof



Har bir davlatda qonun va me'yorlar mavjud bo'lib, ular jamiyatni boshqarish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va tartibni ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Bu jarayonda yuridik tizimning asosiy tarkibiy qismalaridan biri bo'lgan prokuratura xodimlari muhim rol o'ynaydi.

yo'nalishlariga ega xodimlar bilan ta'minlangani sababli qonun ustuvorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Prokuratura xodimlari har kuni o'z mehnatlarining ahamiyatini anglab, davlat va jamiyat uchun yuksak natijalarga erishish uchun kurashadi.

Mamlakatimizda 8-yanvar Prokuratura xodimlari kuni sifatida nishonlanadi. Prokuratura xodimlari kuni - bu ularning mehnatini e'tirof etish, yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun ko'satilgan yuksak xizmatlarga minnatdorlik bildirishning bir ifodasi. Bu, o'z navbatida, ularga yanada ko'proq mas'uliyatni zimmasiga olish, kasbiy bilimlarini oshirish, yangi yutuqlarga erishish uchun turki bo'lib xizmat qiladi.

Barcha prokuratura xodimlariga ulkan muvaffaqiyatlar, o'z kasblariiga sadoqat, oilaviy baxt va yangi yutuqlar tilaymiz. Ularning yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlashdagi beqiyos xizmatlari uchun minnatdorlik bildiramiz.

**Yulduzxon BAXRONOVA,
Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi talabasi**

Prokuratura – huquqni

muhofaza qilish tizimining tayanchi

Prokuratura tizimi davlatda qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida mustahkam asos yaratadi. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya

qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokuratura tizimi o'z faoliyatida alohida darajada davlatning huquqiy boshqaruvining barqarorligini ta'minlaydi. Prokuraturaning o'ziga xosligi shundaki, u qonun ustuvorligini, xalq manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi va har bir huquqbazarlikka qarshi murosasiz kurashadi, tahlil qiladi hamda eng adolatli

hukm yo'llarini izlaydi. Ushbu soha vakillarining ish faoliyati ko'pincha murakkab va jiddiy bo'lib, ularning mas'uliyati ham katta. Har bir prokuror o'z faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu esa har bir ishning tez va to'g'ri hal etilishiga, jamiyatda qonun va qoidalarni hurmat qilishga olib keladi. Ular aybdorlarni aniqlash, tergov qilish va qonuniy jazolarni belgilash orgali davlat tizimining samaradorligini oshiradi.

Prokuratura xodimlarining kasbiy faoliigli nafaqat ular ish faoliyatini o'z vaqtida va sifatli bajarishlari bilan cheklanadi, balki ular jamiyatda o'zlarini haqiqiy adolat tarafori sifatida namoyon qiladi. Ularning ishi har doim davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni saqlash, yurtimizdagi ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Prokuratura tizimi, yuqori darajadagi mutaxassislar, ilmiy va amaliy ishlarning ilg'or



ONA TABIAT – MO'JIZA

Ha, xuddi shunday. Biroq ba'zi odamlar mo'jiza deganda Xitoy devori, Eyfel minorasi, Tojmahal kabi ro'yxatga olingan sanoqli obidalarni ko'z oldiga keltiradi. Lekin tevarak-atrofdagi ajoyibotlar va sir-sinoatlarga e'tibor bermaydi.

Ehhe, tabiat bag'rida qanchadan qancha tengsiz mo'jizalar mavjud. Lekin buni faqat tabiatga yaqin bo'lgan kishi his qilishi mumkin.

Mening bolaligim qamish zor va to'rang'ilzor to'o'q a y g a t u t a s h g a n mo'jaz bir mahallada o'tgan. Shu bois qalbim doimo ona tabiatni qo'msaydi, unga intiladi.

Tabiat bag'rida yursam, har qadamda bir mo'jizaga duch kelaman. Masalan, meni yer-u ko'kdagi tartib-u muvozanat har doim hayratga soladi. Yer va boshqa sayyoralar zo'r tartib bilan aylanadi.

Quyosh doimo o'z vaqtida chiqadi. Oy esa o'n besh kunda to'lishadi. Qish ketidan, albatta, bahor keladi va hokazo.

Menga ayniqla qushlarning hayoti, ularning o'z maskanlariga qaytib kelishi ham beqiyos mo'jiza bo'lib tuyuladi. Masalan, xalqimiz ardoqlab, e'zozlaydigan afsonaviy qush – qaldirk'ochni olaylik. Bu aqlli qushning faqat uya qurib, bola ochishida qanchadan qancha sir-sinoat bor. Birinchidan, qaldirk'ochlar odamlar yashaydigan uyning shiftiga uya quradi. Buning uchun avvalo tinch, osoyishta, fayzli xonadonni tanlaydilar. Ikkinchidan, qaldirk'ochlarning uyasi boshqa qushlarnikiga qaraganda mustahkam va chiroyli bo'ladi. Shuningdek, ular polaponlarini hasharotlardan himoya qilish uchun uyasiga rayhonning shoxchalarini to'shar ekan. Chunki zararkunanda hasharotlar rayhonning muattar hidini yoqtirmaydi.

Yana bir ajoyib sayroqi qush – bulbul ham doimo qalbimni hayajon va hayratga to'ldiradi. Har kun erta tongda uyqudan uyg'onib, yangi kunga yetkazgani uchun Yaratganga shukronalar aytaman va bog'imiz to'ridagi mo'jaz olchazorga yo'l olaman. U yerda qadrdon do'stim – bulbul bilan tongni qarshi olamiz.

Mana, mendan ikki-uch qadam narida ertak va she'rlarda ta'riflangan qo'shiqchi qush kuyib-yonib sayrayapti. O'zi mittigina qush bo'lsa ham, ovozi naqadar jarangdor va yoqimli! Shu damda beixtiyor buyuk ertaknavis yozuvchi Kristian Andersenning "Bulbul" ertagini eslayman. Ushbu ertakda yozuvchi bulbulni shunday ta'riflaydi: "Bulbul shu qadar go'zal sayrar ekanki,

uning qo'shig'ini eshitib o'tirgan baliqchi o'zining qayg'u-tashvishlarini va suvg'a tashlagan to'ini ham unutib yuborarkan. U kutilmaganda: "Parvardigor, hayot naqadar yaxshi!" deb uzun so'lish olar ekan..."

Yozuvchi yana bir o'rinda shunday yozadi: "Bulbul shunday bir navo qildiki, imperatorning ko'zidan duv-duv yosh kelib, yonoqlariga oqa boshladi. Qushning qo'shig'i yuraklarga yetib borardi..."

Mana shunday ajoyib navosi bilan shoh-u gadoni o'ziga maftun etgan bulbul bizning bog'da sayrab turishi mo'jiza emasmi?! Sokin tongda bulbul qo'shig'ini tinglar ekanman, qalbimda shukronalik hissi uyg'onadi: "Ming bora shukr, Alloh nazari tushgan zaminda yashayapmiz. Yurtimiz tinch, turmushimiz farovon. Bog'larimiz kundan kunga chirov ochib, sayroqi qushlar, asalarilar oshyoniga aylanib borayotir. "Tinch elning bog'i gullaydi", deydi dono xalqimiz. Tabiatga hamohang jamiyatda ham olamshumul o'zgarishlar, ta'bir joiz bo'lsa, tengsiz mo'jizalar ro'y bermoqda. Qurilayotgan muhtasham binolar: maktab, bog'cha, mehmonxonalarini ko'rib, ko'zlar quvonadi, qalbimiz faxr va g'ururga to'ladi. Istiqlol bergan bunday ne'matlar bardavom bo'lsin! Ilohim, ozod va obod Vatanimizga, jannatmakon bog'larimizga ko'z tegmasin!" degan tilaklar ko'nglimdan o'tadi.

Alqissa, mo'jizani uzoqlardan izlab yurmang, aziz birodar! Tabiatga yaqin bo'ling, borliqni e'zozlang! Shunda tabiat ham sizga tengsiz sirlarini ochadi, uning ne'matlaridan, mo'jizalaridan bahramand bo'lasiz.

O'ktam SULTONOV
Hazorasp tumani

Ma'naviy meros

AVLONIY asarlari va yoshlari tarbiyasi

Abdulla Avloniy – o'zbek milliy ma'nnaviyati va madaniyatini yuksaltirishda katta hissa qo'shgan taniqli ma'rifikatparvar adibdir. Uning asarlarida yoshlari tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, u o'z davrida jamiyatning ma'nnaviy yuksalishi va yangi avlodni tarbiyalash borasida ulkan g'oyalarni ilgari surgan.

Avloniy o'zining mashhur "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning ahamiyatini quyidagicha ta'kidlaydi: "Tarbiyasiz inson qanotsiz qush kabitir". Ushbu fikr uning yosh avlodni tarbiyalashda axloqiy qadriyatlarni shakkantirishga qanchalik katta ahamiyat bergenini ko'rsatadi. Avloniy inson kamoloti va

jamiyat taraqqiyoti tarbiya bilan bevosita bog'liq ekanini tushungan holda har bir yoshni to'g'ri yo'naltirishni zarur deb biladi.

Asarlarida yoshlarning faqat bilim olishini emas, balki ularda insoniylik, halollik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat kabi fazilatlarni shakkantirish muhim ekanai ta'kidlanadi. Shuningdek, Avloniy diniy va dunyoviy bilimni tarbiya vositasi sifatida ko'rib, yoshlarni halol va pokiza yashashga undaydi.

Adib axloqiy qadriyatlarni o'rgatishni jamiyatning ustuvor vazifasi deb hisoblagan. Yoshlarni yomon odatlardan saqlash, ularga adolat va mehr-oqibatni singdirish zarurligini uqtiradi hamda yoshlarni ilm olishga chorlab, ilm-fan taraqqiyotning asosiy omili ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Avloniy asarlaridagi g'oyalari bugungi kunda yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish, ularga ma'nnaviy va axloqiy qadriyatlarni singdirishda muhim ahamiyatga ega. Yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o'zligini saqlashda,

ularni vatanparvarlik va insoniylik ruhidagi tarbiyalashda adibning merosi muhim rol o'ynaydi.

Zulosa qilib aytganda, jadid bobomizning asarlarini yoshlari tarbiyasiga bag'ishlangan bebafo manba bo'lib, uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Yosh avlodni tarbiyalashda uning asarlarini o'rganish va targ'ib qilish ma'nnaviy taraqqiyotning muhim qismi bo'lib qoladi. Zotan, Avloniying so'zlarini bilan aytganda, "tarbiyaga befarq qarash kelajak avlodga nisbatan xiyonatdir".

**Podpolkovnik
Faxriddin
NUTFILLAYEV**





Bu Vatan har birimizniki

Bugun mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga har jihatdan qodir bo'lgan, zamonaviy qurol-yarog'lar va harbiy texnikalar bilan ta'minlangan mutlaqo yangi milliy armiyamizga egamiz. Uning zamirida xalqimizning ming yillar davomida shakllangan qadimiylar an'ana va qadriyatları, buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur hamda Zahiriddin Muhammad Boburning Vatanga bo'lgan muhabbatni va yurtga sadoqati mujassamdir.

Vatanning ravnagi avvalo uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlari shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi.

Shuningdek, Vatan himoyasi uchun Qurolli Kuchlar safida xizmat qilish yosh avlod uchun alohida ma'no-mazmunga ega bo'lib, bugun uning nufuzi tobora ortib bormoqda. Bunday xizmatning jozibadorligi faqat yaratib berilayotgan imtiyozlar va harbiy xizmatchilarining ijtimoiy va moddiy jihatdan yuqori darajada ta'minlangani bilangina bog'liq emas albatta. Bu, avvalambor, armiya yosh avlod uchun haqiqatan ham mardlik va mustahkam irodani, yuksak vatanparvarlik tuyg'usini, Vatanimizga sevgi va sadoqat hislarini tarbiyalaydigan hayot matabiga aylangani bilan izohlanadi.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarda Vatan ravnagi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi milliy g'oyalarning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish mustaqillik tafakkurining mazmunidan chuqr o'rın olgan bo'lib, bu ta'lum muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Vatan nima ekanini yurakdan his qilgan, unga hamisha talpingan har bir vijdonli inson yurt qayg'usi bilan yashaydi, uning yarasiga malham, dardiga darmon bo'ladi. Keyingi yillarda "Xalq va armiya - bir tan-u bir jon!" degan egzu g'oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqr

sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda.

Men harbiylarga, askarlarga havas bilan qarayman. Yurtimiz tinch, xalqimiz farovon hayot kechirmoqda. Bularning barchasi Prezidentimizning yurt ravnagi yo'lidagi g'amxo'rligi natijasidir.

Yosh avlod qalbida o'zligini anglash, vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish asosan maktabgacha va maktab davridan boshlanadi. Ushbu davrda bilim berish bilan birgalikda ular Vatanni sevishga, yurtga munosib farzand bo'lishga, milliy g'urur tuyg'ularini his etishga o'rgatiladi. O'smir yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va ularda harbiylikka havas uyg'otish uchun matab davridanoq harbiy texnikalar bilan muntazam tanishtirish, jismoni va ma'naviy chiniqtirishga e'tiborni kuchaytirish ta'lim tizimi mutasaddilarining zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Yoshlarni harbiy xizmatga kuzatish marosimlarini tantanali o'tkazish ham vatanparvarlik tarbiyasi tizimiga kiradi. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar, urush va mehnat faxriylari bilan o'tkaziladigan uchrashev va videokonferens-aloqalardan keng foydalish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda noan'anaviy, ma'naviy tahdidlarning ko'lami kengayib borayotgan bir paytda hushyor va ogoh bo'lish, biz tanlab olgan taraqqiyot yo'liga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzkor qarashlarga o'z vaqtida munosib zarba berish har birimizning burchimizdir.

Ruzmat DADAJANOV,
Jamoat xavfsizligi
universiteti dotsenti

Posboniman muqaddas yurtning!

Har bir inson uchun tug'ilib o'sgan yurti, Vatanining qadr-qimmati beqiyosdir. Bizning yurtimiz O'zbekiston esa tinchlik va osoyishtalik maskani sifatida butun dunyoda tan olingan. Ushbu muqaddas yurtni asrash va himoya qilish har bir fuqaroning burchi bo'lib, bu vazifa ayniqsa yurt posbonlari zimmasida yotadi.

Yurtni himoya qilish eng ulug'ishdir. O'zbek xalqida vatanparvarlik qadimdan aziz hisoblanadi. Ajdodlarimiz hamisha o'z yurtining tinchligini himoya qilish uchun jonfido qilgan. Bugungi kunda esa bu an'analar yosh avlodga o'rgatilmoxda. Zero harbiy xizmatning yoshlar tarbiyasidagi o'rni beqiyos. Bu jarayon ular qalbida Vatanga muhabbatni shakllantiradi, mas'uliyatlari va intizomli bo'lishga o'rgatadi.

O'ZBEKISTON – bizning aziz Vatanimiz, muqaddas yurtimiz. Har bir o'zbekistonlik uchun ona Vatan – bu unutilmas bolalik xotiralari, otanonning mehri, ona tilining jarangi va ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros. O'zbekiston zaminida ko'plab buyuk olim, shoir, sarkardalar yetishib chiqdi. Ularning nomi dunyo ilm-fani va madaniyatida o'chmas iz qoldirdi.

TINCHLIK VA OSOYISHTALIK inson hayotining eng buyuk ne'matlaridan biridir. Bu ne'matning asl qadrini yurti notinch bo'lgan xalqlar yaxshi biladi. Bizning O'zbekistonimiz esa tinchlik va do'stlik yurti sanaladi. Ushbu osoyishta yurtning har qarichi bebaho, uning himoyasi esa eng sharafli burchdir. Shuning uchun ham "Posboniman muqaddas yurtning!" degan iftixorli jumla nafaqat harbiylarning, balki har bir vatanparvarning hayotiy shioriga aylanishi lozim.

Bugungi tinch hayotimiz zamirida yurt posbonlarining fidokorona mehnati yotadi. Ular kundalik xizmatlari orqali nafaqat xalq osoyishtaligini ta'minlaydi, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam poydevor yaratadi. Posbonlik shunchaki kasb emas, bu mas'uliyat, fidoyilik va Vatanni chin dildan sevishdir.

Harbiylarimizning matonati va kuch-g'ayrati O'zbekistonimizning tinchligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Milliy armiyamizning kuch-qudrati bugungi kunda butun dunyoga ma'lum. Harbiylarimizning intizomi, professional tayyorgarligi va Vatanga sadoqati O'zbekistonning dunyodagi obro'sini oshirmoqda.

HARBIYLAR – bu millatning ishonchi, kuchi va qalqoni. Ularning sa'y-harakatlari tufayli biz o'z uyimizda tinch va osoyishta yashayapmiz.

Biroq Vatan himoyasi faqat harbiylar zimmasida emas. Aslida har bir fuqaro o'zini Vatan posboni deb bilishi kerak. Chunki tinchlikni saqlashning eng muhim omillaridan biri. Ularning ongi va qalbida Vatanni sevish, uni himoya qilish tuyg'usini uyg'otish muhim vazifamiz sanaladi. Chunki yurt kelajagi yoshlar qo'lida.

Bugungi yoshlarimizning qalbida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish tinchlikni saqlashning eng muhim omillaridan biri. Ularning ongi va qalbida Vatanni sevish, uni himoya qilish tuyg'usini uyg'otish muhim vazifamiz sanaladi. Chunki yurt kelajagi yoshlar qo'lida.

O'zbekiston – bu mening muqaddas yurtim. Uning har bir qarich yeri, har bir dovoni men uchun aziz va qadrli. Shu sababli men o'zimni ushbu yurtning sodiq posboni deb hisoblayman. Posbonlik

nafaqat qurol bilan yurtni himoya qilish, balki yurtning rivojiga hissa qo'shish, uni sevish va uning tinchligini asrashdir.

Men bu muqaddas yurtning posboni bo'lishni, uning ravnaqiga hissa qo'shishni, tinchligimizni asrash yo'lida xizmat qilishni o'z oldimga maqsad qilganman. Chunki har birimizning burchimiz Vatanimizni sevish, uning sha'ni va qadrini ulug'lashdir. Vatan taqdiri har birimizning taqdirimiz bilan bog'liq. Shuning uchun o'z ishimizda, o'z sohamizda fidoyilik ko'rsatib, Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilishimiz lozim. Shu yurtda istiqomat qilayotgan inson borki o'z burchini anglab, bu ulug' vazifani bajarishga intlsa, O'zbekistonimiz yanada kuchli, tinch va farovon davlatga aylanadi. Men ushbu ulug' maqsad yo'lida sodiq xizmat qilishga tayyorman. Chunki "Posboniman muqaddas yurtning!" degan so'zlar hayotimning asosiy mazmuniga aylangan.

TINCHLIK – bebaho ne'mat. Uni himoya qilish va asrash har birimizning burchimiz. Muqaddas yurtimizni sevish, uni asrab-avaylab, kelajak avlodga tinch hamda obod holda goldirish zimmamizdag'i eng katta mas'uliyat sanaladi. Shu sharafli yo'lida men ham o'z hayotimni baxsh etishga tayyorman!

Shu bois tinchlik va ravnaq yo'lida barcha kuch-g'ayratimni safarbar etib, muqaddas yurtimizga munosib farzand bo'lishga intilaman.

Leytenant Farrux ABBOSOV



ONA YURACI

Avtahalokat sodir bo'ldi... Og'ir avtahalokat... Harqalay dala-dashtda, odamlar yashamaydigan kimsasiz hududda emas, aholi qo'nim topgan joyda bo'ldi bu fojia. Bir zumda odamlar yig'ildi. Kimdir 102 ga qo'ng'iroq qildi, kimdir 103 ga. Kimmadir tutab yotgan yengil mashinalar ichidan yo'lovchilarni qutqarishga shoshildi:

- Mashina eshiklari pachaqlanib ketibdi, ochilmayapti...

- Oynalarini sindiring, oynalarни...

- Qimirlagan jon ko'rinnayapti, balki...

- Hushidan ketgan bo'lishi mumkin, harakatni pasaytirmang...

- Bunday avariyyada tirik qolish...

Ikkala mashina atrofida ham qutqaruvchilar yetarli darajada. Ichki ishlar va tibbiyot xodimlari yetib kelgunga qadar avtahalokat jabrdiydalarini birin-ketin mashinalardan tortib olindi.

- Mana bu qizning oyoq-qo'llari yomon lat yegan ko'rinnadi, hushida yo'g'-u, ingragan tovush chiqaryapti.

- Qani, men bir ko'ray, - ellik yoshlardagi ayol ikkita yigit yo'l chetiga avaylab yotqizayotgan qizning yoniga keldi. - Kiyimlariga qaraganda yangi kelinchakka o'xshaydi, - ko'zida yosh bilan to'zg'ib ketgan sochlari to'g'rilab, egnidagi kamzulini yechib, boshiga qo'ydi. - Sabr qil, qizim, hozir do'xtirlar keladi, Xudo xohlasa, yashaysan...

Odamlarning sa'y-harakati bilan yengil mashinalar ichidan chiqarib olingan sakkiz nafar yo'lovchining deyarli barchasi jon taslim qilgandi. Ular orasidagi besh va uch yoshlardagi ikki bolakayning erta ayrilgan umridan barchanining yuragi uvishdi. Ayniqsa, boshidan qattiq

lat yegan 35 yoshlardagi juvon chaqalog'ini bag'riga bosgancha hayot bilan vidolashgandi. Ko'p o'tmay, osudalik posbonlariyu bir qator tibbiy xizmat mashinalari yetib keldi. Soha xodimlari o'z ishiga kirishib ketdi. Hayot alomatlari sezilib turgan kelinchakka birinchchi yordam ko'rsatish uchun zudlik ila tibbiy xizmat mashinasiga olindi. Qolganlari... Shunda ona bag'ridagi chaqaloq ingalab yubordi. Uning ovozidan atrofdagi karaxt holda turgan odamlarga jon kirdi:

- Yooo qudratingdan, onasi bag'ridagi go'dak tirik ekan.

- Boladan sado chiqmaganiga uni tirik deb o'ylamagandik, - mashina ichidan ona-bolani tortib olni ikki yigit hayratini yashirmsadi.

- Chaqaloqni ayolning qo'lidan olaylik desak, bag'riga mahkam bosgani uchun iloji bo'lmagandi.

- Ovozi o'tkirligini qarang, lat yemagan ko'rinnadi...

Shifokorlar bola tomon shoshildi. Kiyimlariga onaning qoni sachragan chaqaloq og'izchasini har tomonga burib, ko'krak so'rardi. Jon taslim qilgan onada esa sado yo'q.

- Uning sog'lig'ini tekshirib, oziqlantirish kerak, - chaqaloqqa qo'l cho'zdi shifokor yigit.

Ne ajabki, u go'dakni onaning qo'llaridan olishga harakat qilgani sari ayol bolasini bag'riga qattiqroq bosar, go'yoki yet qo'llarga berishni istamasdi. Shunda shifokor hayrat bilan sheriklariga qaradi:

- Ayolning yuragi urib turibdi, sizlar ham eshitib ko'ringlar-chi.

- To'g'ri, yuragi uryapti, - uning fikrini tasdiqladi juvonni tekshirib ko'rgan boshqa shifokor. - Ammo bosh qismi pachaqlanib ketgani bois hamma organlari faoliyatini to'xtatgan. Qani, bolani olishga urinib ko'ray-chi.

Yo'q... Uning harakati ham besamar kechdi, ona ikki qo'li bilan mahkam quchoqlab olni bolasini bermadi.

- Tez roq talafot ko'rganlarning shaxsini aniqlab, yaqinlarini chaqirtirish zarur,

- organ xodimlariga yuzlandi shifokorlarning yoshi kattarog'i.

- Ayolning yaqinlari yetib kelmasa, bolani uning qo'lidan olish mushkul. Qo'llari xuddi po'latga o'xshaydi, bolasini olishga harakat qilganimiz sari mahkamroq bag'riga bosyapti. Bola uchun bu xavfli. Ammo uni oziqlantirish kerak, yo'qsa, bu chinqirishida holdan toyadi.

- Vaziyatdan xabardormiz, lekin yaqinlari yetib kelguncha vaqt o'tadi, - fikr bildirdi organ xodimi. - Shuning uchun ona-bolani shifoxonaga olib borib, o'sha yerda chora ko'rish kerak. Aytmoqchimanki, onasining qo'lida turgan holda oziqlantirsiba'lar...

Shifoxonaga keltirilgan onasi bag'ridagi go'dakka bolalar ovqati tayyorlab ichkizildi. U qorni to'ygach, uyquga ketdi.

- Bolakayning maza qilib uxlashini qarang, yig'isi to'xtamassa, nima qilamiz deb turgandim, - bolani oziqlantirgan hamshira jonsiz ona bag'ridagi chaqaloqqa termilib ko'zyoshini tiya olmasdi. - Uning ham onasidan ayrligisi yo'q.

- Bola ona qornidagi hayotida yurak urishini eshitib turadi. Hozir ham onasining yuragi ustida yotgani uchun xotirjam, - unga tushuntirdi shifokor. - Ammo vujudida allaqachon hayot alomati to'xtagan ayolning yuragi urib turgani, bolasini bag'ridan bermayotgani hayratlanarli.

Ularning suhbati oxiriga yetmay, xonaga organ xodimi boshchiligidagi yoshi elliklardan oshgan ayol kirib keldi. U onabolaga ko'zi tushgan zahoti faryodini ta'riflashga til ojiz... Shifokorlarning xayoli esa g'ingshiy boshlagan chaqaloqda. Yo'q, juvonning qaynonasi ham nabirasini qo'liga olishga qodir bo'lmadi.

- Opa, dardingizga sherikmiz, o'zingizni qo'lga oling. Hozir oldimizda turgan asosiy vazifa qizingizning qo'lidan nabirangizni olish,

- vaziyatni tushuntirdi shifokor.

- Biz harakat qildik, bo'lmadik.

Bolasini sizga bersa kerak.

- O'zimning Oyjamolim, xushro'y qizim, - ko'zyoshlari yuzini yuvib qiziga termildi onaizor. - Qara, izingni bosuvchi qizalog'ing tirik qolibdi. Kel, uni menga ber, bag'rimga bosay, - nabirasiga qo'l cho'zdi onaxon.

Juvon yana o'sha holatni takrorladi, onasi uni iltijolar ila qay darajada silab-siyopmasin, bolasini bermadi.

- Bolaginam, kimdandir umid qilyapti, balki, qaynonasidir. Hozir u ham kelib qoladi...

Avtahalokatda o'g'lidan, kelinidan ayrilgan oltmish yoshlardagi g'amusor ona kirib keldi. Ayriliq otashi qaddini eggan har ikki onaning faryodini ta'riflashga til ojiz... Shifokorlarning xayoli esa g'ingshiy boshlagan chaqaloqda. Yo'q, juvonning qaynonasi ham nabirasini qo'liga olishga qodir bo'lmadi.

- Rozi bo'lsangiz, boshqacha yo'l tutamiz, shunga majburmiz, - bu sinoatdan g'am-u hasrat va hayratda turgan ikki onaxonga tushuntirdi shifokor. - To'g'ri,

yuragi urib turgan onanining bag'ridan bolasini zo'rlik bilan olish insoni tuyg'ularga to'g'ri kelmaydi, biroq boshqa ilojimiz yo'q...

- Shoshmang, o'g'lim, - qizining qo'llarini qayirib, bolasini bag'ridan yulib olayotgandek qaltirab ketdi ona.

- Balki, bolasini singlisiga ishonar. U roddom dan kelganidan keyin biroz mazasi bo'lmadi. Shunda singlisi bir oydan ziyyod oldida turib, bolasiga qaragandi.

- Unda vaqt o'tkazmay, uni chaqirtirish kerak...

Singil yetib keldi. Uning jon taslim qilgan, ammo qizalog'ing uchun yuragi urib turgan jigaporasi ko'ksidan nuridiydasini olishi oson emas.

- Opajon, Nurjamolni menga berasizmi? - bo'g'zini achchiq yig'i kuydirib turgan singil opasining qo'llarini siladi. - Uni hech kimga bermayman, o'zim katta qilaman...

Ayolning bolasiga chirmashgan qo'llari bo'shashdi, chehrasida xotirjamlik zohir bo'ldi. Singlisi uning ko'ksidan bolasini olib bag'riga bosgan zahoti onanining yuragi urishdan to'xtadi...

**Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"**

Vatanni sevmoq – oliy qadriyat



Zulfiya YUNUSOVA

Singil tilagi

Posbon og'am, jo'mard og'am, mardonam,
Zahmatlarda suyanganim, yagonam,
Sizni yurtga yor qilib tug'gan onam,
Yo'llaringiz bo'lsin yorug', og'ajon.

Siz borsizki, yer-osmonim daxlsiz,
Obod qo'rg'on, gul-rayhonim daxlsiz,
Jonim elim, qiz-o'g'lonim daxlsiz,
Sizga ta'zim, sizga qulluq, og'ajon.

Daxlsizdir istiqlol – iqbol tojim,
Qo'lim cho'zsam oyga yetar qulochim,
O'zimniki davlatim-u quvonchim,
Asragaysiz qalqon yanglig', og'ajon.

Tinchlik qadar aziz ne'mat yo'q asli,
Omon turar u sabab iqbol qasri,
Uni asrar siz kabi sherlar nasli,
Qo'lingizda yengilmas tug', og'ajon.

Buyuk meros Vatanim – omonatim,
Yog'iyya bosh egmagan qadriyatim,
O'zbekona zabonim, fazilatim,
Siz-la boqiy, siz-la ulug', og'ajon.

Mard norlarning tog'lar qo'nar kaftiga,
Makkor dushman dosh berolmas taftiga,
Yer-u samo yor bo'ladi ahidga,
Jasorat-la soling dovrug, og'ajon.

Duo qilar sizni har chog' singlingiz,
Haqdan tilar sizdek jigar har bir qiz,
Ortingizda qolsin faqat nurli iz,
Ko'ksingizda so'nmasin cho'g', og'ajon,
Yo'llaringiz bo'lsin yorug', og'ajon.

Vatan mardlariga

Kunduzlar nurafshon, tunlar charog'on,
Tinchlikdan bong urar bunda har sado.
Vatan deb qad tutar har jasur o'g'lon,
Qo'llarda yuksalar muzaaffar tug'ro.

Bugun alp erlarni qutlaydi zamin,
Qutlaydi lochinlar charx urgan samo.
Bugun ayyomidir Vatan mardlarin,
Ezgu tilaklarga har yurak oshno.

Hurlikning lahzasi jon qadar aziz,
Unga umrin tikkan mardlar sog' bo'ling.
Siz borki, tinchlik bor, Vatan daxlsiz,
Bu yo'lda hamisha ko'ksi tog' bo'ling.

Or-u g'ururingiz osmonga tutash,
Buyuk ajdodlarning surriyotisiz.
Mardlikka chorlaydi bu mehri otash,
Yurt deb yonganlarning pok avlodisiz.

Siz bor ona yurtga qo'l cho'zolmas yov,
Ming sinov oldida qadadingiz shamshod.
Ko'ksingizda so'nmas shiddatl olov –
Bu, Vatan oldida qilgan Qasamyod.

Samo lochinisiz, zamin yo'lbarsi,
Yurt uchun har lahma umringiz fido.
Siz ahli erlarning eng zabardasti,
Siz Temur avlod – mardlikda tanho.

Yurtni asra, bolam!

Yuragim kaftida o'stirdim seni,
Mehrimning taftida o'stirdim seni,
Onam – borim desang, rozi qil meni,
Yurtni asra, bolam, joningda asra!

Onang oqsoch bo'ldi, otang toychog'ing,
Halovatda o'tdi tun-u tong chog'ing,
Bobolardan meros belda belbog'ing,
Yurtni asra, bolam, joningda asra!

Yog'iyning katta-yu kichigi bo'lmas,
Dushmanim ojiz deb, bo'lma nopsisand
Hushyor bo'l, bedor bo'l har on, har nafas,
Yurtni asra, bolam, joningda asra!
Zaminning cho'li ham, bog'i ham Vatan,

Yaydoq sahrosi-yu, tog'i ham Vatan,
Ne-ne bahodirlar umrini tikkan –
Yurtni asra, bolam, joningda asra!

Bu Vatan ajdodlar asragan yodgor,
Uning har gardida shahid qoni bor,
Muazzam bag'rige yetmasin zavol,
Yurtni asra, bolam, joningda asra!

Orimsan, Vatan!

Bobolarim sajda etgan mehrobim,
Momolarim ko'zga surgan tavobim,
Jannat ko'shkidagi nuri oftobim,
Ajdodlardan ulug' merosim, Vatan.

Sen "Cho'li irog"im karvoni bedor,
Yurt hajri komida Majnunlarga yor,
Ayro yo'llarda ming Furqatlarin bor,
Bobur ohidagi zor-zorim, Vatan.

Kimlar qo'l cho'zmadi, kim etdi tobe,
Ko'ksingni tig'ladi dard, zabun tol'e,
Ko'klarni titratdi nola-yu ohi,
Istibdod zulmida bemorim, Vatan.

Oqpadar kaslardan arzon sotilding,
Beqasam to'narda ming bor otilding,
Jangchi jadid bo'lib dorga osilding,
Ming choh yutolmagan zalvarim, Vatan.


Xokisor elingni qul deb bildilar,
Qatag'on etdilar, ko'ksing tildilar,
Mustabid chohidan hurlikka qadar –
Qaddi egilmagan viqorim, Vatan.

Oddiy cho'poning ham ming yovni yenggan,
Bag'ringga Alplarning quadrati inggan,
Qaramlik, qatlonlar bo'lsa-da tingan,
Ko'ksi otash ona timsolim, Vatan.

Hamon atrofingda "oshiqlar" bisyor,
Intilib turadi och qashqir misol,
Tinchlik, hurligingga yetmasin zavol,
Saharlar sajdada bedorim, Vatan.

Bir kaft tuprog'ingga qo'l cho'zsa g'anim,
Bemorlik komida og'riydi jonim,
Seni asramoqlik burchim, iymonim,
Qaddimni tutguvchi sha'n-orim, Vatan.

Bag'ringga qul bo'lmoq shohdek huzurli,
Yaldo tunlaring ham quyoshdek nurli,
Bemor kunlaringni eslamaymiz, qo'y,
Seni kansitganlar baribir pulli,
Behisht qiyos olgan jamolim, Vatan.

Kichik serjant
Abduhamid OLLAYOROV*Sen borsanki...*

Sen borsanki bilmaydi daxl,
Shu Vatanning yer-u osmoni.
Sen o'zing-ku avval-u oxir,
Buyuk xalqning sodiq posboni.

Sen borsanki yurtda omonlik,
Sarhadlarda tinchlik hukmron.
Qay bir dilda qo'psa yomonlik,
Qarshisida turguvchi posbon.

Sen borsanki osmon musaffo,
Tahdidlar-u xatardan xoli.
Sharaflarga to'lgan doimo,
Kulsin mudom baxt-u iqboling!



Kichik serjant Shohrux USMONOV

*O'zbeginning
farzandiman*

Bag'ringda o'stirding boshimni silab,
Non berding, tuz berding, umrimni tilab,
Yig'lasam ovutding mehr-la siylab,
Onamsan, baxtimsan o'zing, Vatanim,
Otashnafas shaxtimsan o'zing, Vatanim,

Baxt chirog'i bo'lding mahkam qo'limda,
Quyoshdek porlading borar yo'limda.
Sherik bo'lding mudom o'ng-u so'limda,
Onamsan, baxtimsan o'zing, Vatanim,
Otashnafas shaxtimsan o'zing, Vatanim,

Sen uchun ishlasam, charchoq bilmayman,
Xizmatimni sira minnat qilmayman,
Yot qarash qilsa kim ko'zga ilmayman,
Onamsan, baxtimsan o'zing, Vatanim,
Otashnafas shaxtimsan o'zing, Vatanim,

Tuz yeb tuzlug'iga tupurgan nokas,
Yurtga tosh otmoqni bas qil, endi bas!
Bu ishingni hatto Tangrim xushlamas,
Onamsan, baxtimsan o'zing, Vatanim,
Otashnafas shaxtimsan o'zing, Vatanim.

Jahonga bo'y cho'zgan zo'r savlatim bor,
Dunyo havas qilgan sof millatim bor.
Maqtasam arzигай, hur davlatim bor,
Onamsan baxtimsan o'zing, Vatanim,
Otashnafas shaxtimsan o'zing, Vatanim.

Keldi shunday zamon, istiqlol qutlug',
Ulug' eding, bo'lding undan-da ulug'.
Senga chin mehrini bitmoqda Shohrux,
Onamsan, baxtimsan o'zing Vatanim,
Otashnafas shaxtimsan o'zing, Vatanim!

G'amxo'rlik

Hech kim mehr va e'tibordan chetda emas



Surxondaryo viloyatining shahar, tuman va tog'li hududlarida, qishloq va mahallalarida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbirdari bo'lib o'tmoqda.

Sho'rchi tumanida joylashgan 122-tonli kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida himoya qilish, ularning muammolariga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish maqsadida madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Xayrobod garnizonidagi harbiy qismi, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi harbiy xizmatchilar, faxriylar hamda jamoatchilik kengashi vakillari ishtirot etdi.

Tadbirda so'z olganlar mehr-muruvvatli va bag'rikeng xalqimiz azal-azaldan

yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'sratishni jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e'zozlab kelayotganini e'tirof etib, davolanuvchilarga mustahkam sog'liq tiladi.

Tadbirda bolajonlar uchun turli xil sport o'yinlari tashkil etildi. Shundan so'ng harbiy xizmatchilar va iste'dodli yoshlar tomonidan sahna ko'rinishlari hamda konsert dasturlari namoyish etildi.

Mayor Alisher ERGASHEV
Termiz garnizoni

Xotira turniri

Mardlar nomi barhayot



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligiga bag'ishlab, "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida o'tkazilayotgan tadbirdarda mustaqilligimizni himoya qilish yo'lida jonfido qilgan Vatan himoyachilari yodga olinmoqda.

Jumladan, Termiz garnizonida serjant Muhiddin Eshtemirov, Kakaydi garnizonida serjant Chori Shamiyev hamda Xayrobod garnizonida serjant Mashrab Jo'rayev xotirasiga bag'ishlangan sport o'yinlari va uloq-ko'pkari musobaqasi tashkil etildi.

Jarqo'rg'on tumanida ulg'aygan marhum harbiy xizmatchi Chori Shamiyev hayotini Vatan osoyishtaligiga bag'ishlagan mard, jasur o'g'lon edi. U 1999-yil 21-noyabr sanasida o'z xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan. Ot izini toy bosadi, deganlaridek, ayni paytda marhumning o'g'li mayor Ravshan Shamiyev ham Qurolli Kuchlar safida harbiy uchuvchi sifatida xizmat qilmoqda.

Termizlik serjant Muhiddin Eshtemirov va boysunlik serjant Mashrab Jo'rayev ham yurtning asl o'g'lonlari edi. Ular 2000-yili



Sariosiyo tumanining tog'li hududlaridagi jangovar harakatlarda ishtirot etib, qahramonlarcha halok bo'lgan. Ulardan aytsa ado bo'lmaydigan go'zal xotiralar qoldi. Yillar o'taveradi, ona O'zbekiston mayjud ekan, uning mustaqilligini himoya qilgan, shu muqaddas yo'lda jondan kechgan yosh, navqiron o'g'lonlar yodi mangu barhayotdir.

Xotira tadbirdari davomida ham marhumlarning yaqinlari, ularni tanigan bilganlar so'zga chiqib, ibratli hayot yo'llarini yod etishdi, Vatan tinchligi va osoyishtaligini asrash maqsadida ko'rsatgan jasoratlarini sharafladi.

Darvoqe, marhumlar xotirasiga tashkil etilgan musobaqalar qiziqarli bahslarga boy bo'ldi. G'oliblar qo'mondonlikning diplom va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

Xalqaro hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi o'rinnbosari Nizomjon Parmanov boshchiligidagi bir guruham mas'ul xodimlar xizmat safari bilan Germaniya Federativ Respublikasida bo'ldi.

O'zbekistonlik vakillar "SBH West" nemis diyorida haydovchilarini tayyorlash bilan shug'ullanuvchi eng yirik tashkilotning o'quv muassasalarida bo'lib, Germaniyaning avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi hamda yo'l harakati qoidalari bilan tanishdi.

O'z navbatida, Nizomjon Parmanov haydovchilarini tayyorlash bo'yicha "Vatanparvar" tashkiloti tajribasi bilan bo'lishdi.



Germaniya tajribasi o'rganildi

Uchrashuv davomida "SBH West" o'quv tashkiloti boshqaruvchi direktori Peter Niemann Germaniyada O'zbekistondan avtobus va yuk avtomobili haydovchilarini, teplovoz mashinistlarini tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha o'zaro mustahkam manfaatli hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilishiga ishonch bildirdi.

Ma'lumot uchun: Germaniyada ayni paytda "D" va "CE" toifali avtotransport haydovchilariga katta ehtiyoj sezilayotganligi bois "Vatanparvar" tashkilotining respublikadagi shahar va tumanlarida faoliyat yuritayotgan o'quv muassasalarida fuqarolar ushbu toifalarga o'qtilib, mazkur



xorijiy davlatga yuborilishi eng maqbul yo'lekani e'tirof etilgan.

Ayniqsa, o'tgan yili Germaniya tomonidan tashkilotga ikki dona "Yevro-6" standartidagi zamonaviy "Mercedes-Benz" rusumli yuk avtomobilarining sovg'a qilinishi hamkorlikdagi ishlarning to'laqonli olib borilishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Eslatib o'tamiz, 2023-yilning sentabr oyida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan bo'lib, ushbu memorandumning asosiy maqsadi xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan mamlakatimiz fuqarolarini shartnoma asosida xorijiy mehnat bozorida talab etilgan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish hisoblanadi. Shuningdek, ushbu hujjatda o'qish davomida fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'usini keng targ'ib etish va ularda Vatan tuyg'usini rivojlantirish belgilab qo'yilgan.

**O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti
matbuot xizmati**

Sog'lom turmush tarzi



KO'P O'TIRISH XAVFILLI

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi o'n yillikda bu sindrom va uning oqibatida paydo bo'luvchi suyak, tomir, bo'g'im xastaliklari keskin ko'paygan. Zamonning olg'a rivoji esa kelajakda bu xastalik faqat va faqat ommalashishidan dalolat bermoqda xolos.

Aslida ham 7-8 saat davomida harakatsiz o'tirish, noto'g'ri ovqatlanish, kun tartibi va uyqu me'yoring bezovta qilishda davom etaveradi. Bu "ofis xodimi sindromi"ning yashirin ko'rinishi bo'lib, asosan uzoq muddat harakatsiz holatda o'tirib ishslashdan paydo bo'ladi.

Masalan, mutaxassislarining ta'kidlashicha, umurtqa osteoxondrozi umurtqa pog'onasining surunkali kasalligi bo'lib, ofis xodimlari orasida juda keng tarqalgan. Bunda ba'zan bermor yelkasida og'riq sezadi, ammo tekshiruvlarda biror kasallik alomati sezilmaydi. Rentgen tekshiruvida ham osteoxondroz belgilari ko'rinxayishi. Ammo bermorni yelkadagi og'riq bezovta qilishda davom etaveradi. Bu "ofis xodimi sindromi"ning yashirin ko'rinishi bo'lib, asosan uzoq muddat harakatsiz holatda o'tirib ishslashdan paydo bo'ladi.

Yodingizda bo'lsin, kamharakatlilik tanada qon aylanish tizimini izdan chiqaradi. Birinchisi navbatda, oyoq va kichik tos a'zosida me'yoriy jarayon buziladi. Oqibatda oyoq vena qontomirlarida varikoz kengayishi, bavosil tugunlari hosil bo'lishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda qon aylanishini yaxshilash uchun jismoniy faollilikni oshirish yaxshi samara beradi.

Sindrom belgilari

U bosh og'rig'i, tushkun kayfiyat (yoki asabiylik), bel, yelka, kurakda og'riq, ko'rish qobiliyatining pasayishi, semirib ketish, bavosil kabi kasalliklarda o'z ifodasini topadi. Soha mutaxassislarining ma'lum qilishicha, kompyuter bilan ishlovchi har oltinchi xodimda "kompyuter sichqonchasi" yoki "quruq ko'zlar" sindromi kuzatilar ekan.

"Sichqoncha" sindromi bilan og'riqan bermor kompyuter bilan ushlashi bilan

Texnikaning shiddat bilan rivojlanishi
ish unumdorligini bir necha barobarga oshirdi. Lekin bu jismoniy mehnatning keskin qisqarishiga sabab bo'ldi. Natijada jismoniy mehnat qiluvchi ishchilardan ko'ra, ofis xodimlari ko'paydi va odamlar orasida yangi kasallik — "ofis xodimi sindromi" yuzaga keldi.



kafti va barmoq bo'g'imlarida og'riq sezadi.

Ko'zlar o'z-o'zini namlantririb turish xususiyatiga ega. Ko'zning aynan shu qobiliyati tufayli u qurib qolmaydi, chang zarralari kirganda namlanish ortib, ko'z ichidagi yot moddani chiqarib yuboradi. "Quruq ko'zlar" sindromida esa ko'zning tabiiy namlanish qobiliyati pasayadi. Buni bermor ko'zini tez-tez ochib-yopishidan, ko'zini kattaroq ochishiga harakat qilishidan payqash mumkin.

"Ofis xodimi sindromi" bilan og'riqan bermorlar orasida yoshlarning ko'payishi butun dunyo olimlarini tashvishga solmoqda. Yoshlardagi ofis sindromi belgilari yanada xavfiroq: og'riq, ruhiy bosim va "kompyuter sichqonchasi"dan tashqari, ularda umurtqa pog'onasining qiyshayishi, notezik qomat ham kuzatiladi. Xorijda o'tkazilgan tadqiqotlardan birida ma'lum bo'ldiki, yelkasidagi og'riqlardan shikoyat qilib keluvchilarning 70 foizi yosh xodimlar ekan.

G'arb mutaxassislarining bu boradagi yangi tadqiqotlari natijasi barchani tashvishga solib qo'ydi: agar xodim mehnat sharoiti, ish haqi, rahbariyat va hamkasblaridan qoniqmasa, "ofis xodimi sindromi" asorati bir necha barobarga ortar ekan.

Yevropa mamlakatlarida bu sindrom 20 yildan buyon olimlarning diqqat-e-tiborida. Germaniya mutaxassislar 1980-yillardayoq ofis xodimlarini istehzo bilan "ofis tutqunlari" deya ta'riflagandi.

"Ofis xodimi sindromi"dan aziyat chekuvchilarining ko'payishi ishxonalarda xodimlar uchun qulayliklar yaratishga undamoqda. Masalan, AQShning 60 foiz ofis xodimi o'zining ish o'midan norozi. Ular aynan ishxonadagi sharoit sabab depressiya, quvvatsizlik, bosh og'rig'idan qiynalayotganliklarini ta'kidlamoqda. Bu salbiy ta'sirlarning oldini olish va ish unumdorligini oshirish maqsadida yangi kasb paydo bo'ldi. AQShda 1970-yillarda ommalasha boshlagan dendrolog yoki fitodizaynerlarga dunyoning barcha kompaniyasi ehtiyoj sezmoxoda. Dendrologlar xonalar dizaynnini qulaylashtiradi, ofis ichini ko'kalamlashtirib, uni tabiat qo'yiniga aylantiradi. Bunday mehnat sharoiti xodimlar sog'lig'i va mehnat unumiga ijobji ta'sir etmoqda.

Uning davosi bormi?

Ma'lumotlarga ko'ra, har yili 25 yoshdan oshgan ishchilarning 80 foizida umurtqa pog'onasi xastaliklari, xususan, umurtqa qiyshiqligi aniqlanadi. Bunday kasalliklarning kelib chiqishiga 80 foiz holatda ish stolida gavdani noto'g'ri tutish sabab bo'ladi.

Biroq buni ish sharoiti, kasb taqozosini bilan bog'lab, salomatlikka e'tiborsiz bo'lish

og'ir asoratlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Vaholanki, ushbu muammo, ya'ni "ofis xodimi sindromi"ning oldini olishning oson va samarali yechimi bor. Masalan, ish vaqt davomida imkon qadar har bir-ikki soatda 5-10 daqiqa tanaffus qilish lozim. Bu paytda bir necha marotaba o'tirib-turish, gavdani yon tomonga harakatlantirish, boshni soat millari bo'ylab aylantirish ayni muddaodir. So'ng o'pkamizni to'ldirib nafas olamiz va yana ishni davom ettirishga kirishamiz.

Bel og'riqlaridan himoyalanishda kursi suyanchig'iga maxsus ortopedik yostiq qo'yish ham foydali.

Har ikki soatda bo'yin mushaklari uchun mashq bajarish bo'yin osteoxondrozi profilaktikasida qo'l keladi. Ayniqsa, ensa va kurak sohasida og'riq, uvushish kuzatilganida bunday harakatlar juda samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ishni ertalabki badantarbiyadan boshlash ham kasallikning oldini olishda qo'l keladi. Chunki 10-15 daqiqa qo'l-oyoq chigalini yozish salomatlikni yaxshilaydi. Kun davomida esa zinadan piyoda ko'tarilish, vaqt-i-vaqti bilan xona bo'ylab yurish kerak. Bu tanada qon aylanishini ham yaxshilaydi.

Darvoqe, qon aylanishining me'yorda bo'lishi iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga ham bog'liq. Muntazam qahva yoki achchiq qora choy ichish qon quyuqlashishiga olib keladi. Shuningdek, shirinliklar tufayli organizmda "yomon" xolesterin miqdori ortishi ham sir emas.

Bundan tashqari, kompyuter qarshisida taom yeyishning ziyoni katta. Negaki monitordan chiqayotgan nur nafaqat inson tanasini, balki u tanovul qilayotgan mahsulotlarni ham ma'lum ma'noda zararlaydi.

Tizza bo'g'imlarining bir xil bukilgan yoki yozilgan holatda ko'p qolib ketishi ham sog'liq uchun ziyonligini unutmang! Bunday vaziyatda bo'g'imirning drenaj funksiyasi, oziqlanishi buziladi. Natijada artroz-bo'g'im kasalligi kelib chiqishi mumkin. Bu kasallikning oldini olish uchun oyoqlar holatini almashtirib turish, vaqt-i-vaqti bilan turib yurish, o'tirgan holatda velosiped harakatlarini oldinga va orqaga bajarish kerak.

Yana bir muhim tavsiya. Ish kuni orasidagi tanaffusda qahva va bir bo'lak shokolad bilan oshqozonni xursand qilgandan ko'ra, 10 daqiqa stol tennisi o'ynab, mushaklarga ko'maklashgan foydaliroq. Ish o'ningizni, jihozlarni bo'yingizga mos joylashtirish ham sindromni yengishda yaxshi yordam beradi. Yana o'tiradigan stulning past yoki baland bo'lishi umurtqani to'g'ri tutib turishga xalal beradi. Ishdan keyin transportda mudrab uyg'a qaytishdan yomoni yo'q. O'zingizni tetikroq his qilish uchun, yaxshisi, bir bekat piyoda yuring. Bu suyak va mushaklarni harakatlantiradi.

G. XODJAMURATOVA
tayyorladi.



YANGI INSHOOTLAR foydalanishga topshirildi

Mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning harbiy xizmatni munosib o'tashlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

**Ma'lumki, keyingi
yillarda yurtimizda yosh
avlodni ona Vatanga
sadoqat ruhida tarbiyalash,
ularning ma'nnaviyatini
yuksaltirish va jismoniy
barkamolligiga katta
ahamiyat berilmoqda.
Bu borada O'zbekiston
Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar"
tashkilotining Samarqand
viloyati kengashi
tasarrufidagi "Afrosiyob"
o'quv sport-texnika klub
jamoasi tomonidan ham
bir qancha ishlar amalga
oshirilmoqda.**



QAHRAMONLIK VA JASORAT TARG'IBOTI

Xususan, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishiga muvofiq qizg'in davom etayotgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida "Yangi O'zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida ma'nnaviy-ma'rifiy tadbir va ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Shuningdek, o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli mavzularda ko'rlik-tanlovlardan hamda sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sport musobaqlari tashkil etildi.

- Muhim sana munosabati bilan o'tkazilayotgan uchrashuv, tadbirlar

va davra suhbatlarida keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar hamda faxriyalar tomonidan ishtirokchilarga yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlashda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining o'rnini va ahamiyati tushuntirildi, - deydi O'STK boshlig'i Alisher Usmanov. - Samarqand shahri hokimligi, mudofaa ishlari, ichki ishlari, maktabgacha va muktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan bunday tadbirlerda yoshlarning keksa avlod

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur klubda ham so'nggi yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni jismonan sog'lom shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun "Havo miltig"idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Triatlon" hamda "Aviamodel" kabi seksiya va to'garaklar ishlab turibdi. Buning natijasida tizim tashkilotlari o'tasida o'tkazilayotgan turli yo'nalishdagi musobaqa larda samarqandliklar muvaffaqiyat qozonib, faxrli o'rinnarni egallamoqda.

Bundan tashqari, tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan yana biri malakali haydovchilarni tayyorlash ishlari ham bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda sifatli tashkil etilgan. Buning uchun o'quv mashg'ulot xonalari yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida kerakli

vakillari bilan uchrashuvi o'ziga xos an'anaga aylangan. Albatta, mahallalarda, o'quv muassasalarida va jamaot tashkilotlarida o'tkazilgan tadbirlarda ota-bobolarimizning ko'rsatgan qahramonlik va jasoratlari keng targ'ib etiladi.

va zarur jihozlar bilan ta'minlangan. Ayni paytda bu yerda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari faoliyat ko'rsatmoqda. Joriy yilda ham malakali haydovchilar tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan klub jamoasining izlanishlari davom ettirilmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

"Vatanparvar" tashkiloti "Afrosiyob" o'quv sport-texnika klubni jamoasi barcha yurdoshlarimizni, diyorimiz tinchligi va osoyishtaligi uchun matonat bilan xizmat qilayotgan harbiylarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi va 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy tabriklaydi.

Bayramningiz muborak bo'lsin, tinchligimiz posborlari!



Bolajon

Har bir xalq o'zining milliy qahramonlari, erksevar farzandlari, jasur sarkardalari bilan faxrlanadi. Masalan, ulkan hududlarni birlashtirib, buyuk davlat qurgan va uning moddiy hamda madaniy qudratini beqiyos darajada kuchaytirgan Aleksandr Makedonskiy, Fransiya birligi va ravnaqi, shon-u shavkati uchun buyuk xizmat qilgan Napoleon Bonapart, Sharl de Gol, Rossiya misoldida xuddi shunday ishlarni amalga oshirgan Petr I yoki rus milliy adabiy tili va badiiy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo'shgan Aleksandr Pushkinni o'z xalqining milliy qahramoni deb anglash an'anaga aylangan. Hindiston ozodligi va birligi uchun umrini fido etgan Mahatma Gandi, hind xalqi o'rtasida milliy qahramon hisoblanadi. Xuddi shunday Vatanimiz tarixida ham sheryurak, jasoratli bahodirlar, xalq qahramonlari ko'p o'tgan. Masalan: To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy... Bu sanoqni uzoq davom ettirishimiz mumkin.


Bolajonlar, bugun sahfamizda millatimiz qahramonlarining jasorati to'g'risida ma'lumot bermoqchimiz.

To'maris (*miloddan avvalgi VI asr*) – Turon xalqlarining Ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashda rahbarlik qilgan jasur ayol sarkarda.

Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" asarida yozilishicha, Ahamoniylar davlati asoschisi Kir II miloddan avvalgi 530-yilda Turonga bostirib kirganida To'maris massagetlar qabilasining malikasi bo'lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo'yłari va Qizilqumda yashagan. To'maris massagetlar podshosining xotini bo'lib, u erining vafotidan so'ng davlatni boshqargan.

Erondan kelgan bosqinchilar qo'shini va massagetlar o'rtasida shiddatli janglar bo'ladi. Dastlabki jangda To'marisning o'g'li Spargalis (*Siparangiz*) boshchiligidagi massagetlar g'olib chiqadi. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo'li bilan Spargalis va ayrim massagetlarni asir oladi. Ornomusga chiday olmagan Spargalis o'zini o'ldiradi. To'maris o'g'lining halokatidan esankirab qolmay, o'z xalqining manfaatini o'ylab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so'raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o'rtada ayovsiz jang bo'ladi. Gerodot massagetlar va forslar o'rtasidagi jang tafsilotlarini o'z asarida quyidagicha tasvirlaydi: "Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o'rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo'lgan. Avval har ikkala qo'shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o'qqa tutdilar. Kamon o'qlari tugagach, ular nayza va qilich bilan kurashdi. Jang uzoq vaqt davom etdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozondi. Fors qo'shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo'lgan. U to'liq 29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasadi topilgach, malika (*To'maris*)ning buyrug'i bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to'lg'azilgan meshga solingan".

Vatanparvar qahramonlar siyoshi



Shiroq – Turon xalqlarining ahamoniylar podshosi Doro I bosqiniga qarshi mardonavor kurashgan xalq qahramoni. Poliennenning yozishicha, sak qabilalari oqsoqollari Sakfar, Omarg va Oamiris fors qo'shinini yengish uchun harbiy kengash (*qurultoy*) o'tkazayotganda, ularning huzuriga oddiy otboqar Shiroq kelib, o'z rejasini bayon qilgan. Rejaga ko'ra, Shiroq o'z qabilasi manfaatini himoya qilib, harbiy hiyla ishlatgan va yolg'iz o'zi Doro I lashkariga qarshi turgan.

Shiroq Doro I qarorgohiga kelib, unga qabiladoshlari nohaq sitam yetkazganligi uchun (*uning burni va quloqlari kesilgan edi*) u Eron qo'shinini saklar (*shaklar*) qabilasi turgan yerga qisqa yo'l bilan olib borishini aytib, dushman qo'shinini Qizilqum cho'li ichkarisiga boshlaydi. Eron qo'shini "yo'boshlovchi"ning maslahati bilan faqat 7 kunga yetadigan suv, oziq-ovqat va yem-xashak olgan edi. Jazirama issiqa cho'lni kechib o'tayotgan dushman qo'shini holdan toyib, oziq-ovqat ham tugaydi. Nihoyat, muhlatning 7-kunida dushman qo'shini alanganini payqaydi. Shiroq atrofini qurshab olgan shoh Doro I va uning sarkardalariga qarata quyidagi so'zlarni aytadi: "Men yolg'iz o'zim Doro qo'shinini yengdim. Sizlarni aldab, cho'lning qoq o'rtasiga olib keldim. Xohlagan tomoningizga ketishingiz mumkin, vohagacha to'rt tomoningiz ham 7 kunlik yo'l!"

Dahshatga tushgan shoh va uning sarkardalari Shiroqqa yolvorib, unga suvsiz cho'ldan olib chiqishi uchun katta boylik va'da qilishadi. Shiroq Vatan ozodligi yo'lida jonni fido qilishini aytgach, Doro I ning sarkardasi Ranosbat uni qilich bilan chopib tashlaydi. Qo'shining asosiy qismi suvsizlik va ochlikdan Qizilqum cho'lida qirilib ketadi. Faqat Doro I va uning oz sonli a'yonlari yomg'ir yog'ishi natijasida halokatdan qutulib, Baqtra daryosi (*Amudaryo*) qirg'og'igacha yetib kelgan.

Jaloliddin Manguberdi 1198-yilda tavallud topgan bo'lib, so'nggi xorazmshoh hisoblanadi. Uning otasi xorazmshohlar mamlakati hukmdori Sulton Alovuddin Muhammad bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, qadimgi Xorazm saltanatiga bosqinchi Chingizxonning lashkari yaqinlashib kelayotgan paytda xorazmshoh Muhammad qochib qolishga ulgurdi, uning a'yонлари esa dushmanga taslim bo'lishga tayyor edi. Endigina 21 yoshni qarshilagan Jaloliddin esa ona yurt ozodligi yo'lida barcha og'irlikni o'z bo'yninga oladi. O'n bir yil davomida u mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashib keldi va ularga bir necha bor qaqqashatqich zarbalar berib, mag'lubiyatga uchratdi. Hattoki, qonxo'r va zolim Chingizxon ham Jaloliddin Manguberdining jasorati va qo'mondonlik mahoratiga tan bergen. Uning qo'shnlari o'z yurishlarida birinchi bor Jaloliddinning lashkarlaridan engila boshlagan.

O'sha davrda Chingizxon ko'plab mamlakatlarni zabit etishga ulgurgandi. Ayniqsa, musulmon xalqlarida ushbu mo'g'ul qo'shining qarshi turib bo'lmaydi, ular ya'juj-ma'jujlar, degan tushuncha paydo bo'la boshlagandi. Jaloliddin Manguberdi mana shu qarashni yo'qqa chiqardi. Chingizxonga qarshi kurashish, uning lashkarini mag'lub etish mumkinligini isbotladi.

Eng muhim jihatshuki, Jaloliddin Manguberdining boshiga ne bir musibat tushmasin, faqat va faqat Vatan dedi, uning istiqlolini, istiqbolini o'yladi. U xorazmshohlar vakili sifatida boshqa hukmdorlardan panoh so'rashi, o'z jonini xatarga qo'ymasdan, biror saroyda yashab o'tishi ham mumkin edi. Biroq bunday qilmadi, ozodlik, hurlik yo'lida kurashdi: butun Yer yuzini titratib turgan Chingizzonning ko'ziga tik boqdi, dushman ustiga ot surdi. Vatan ozodligi yo'lida qon yutdi, qon to'kdi, jon oldi, jon berdi. Shuning uchun ham jasorat va mardlik timsoli, qahramon sarkarda Jaloliddin Manguberdi mangulikka daxldor buyuk ajdodimizdir!

Bu qiziq

AMIR TEMUR TUG'ILGAN JOY ASLIDA QAYSI HUDUDGA KIRADI?




Uning nafaqat harbiy yurishlari, balki tug'ilishining o'zi haqida ham ko'plab fikrlar yuradi. Xususan, tarixchi olim Akbar Zamonov bu haqda o'z fikrini bildirar ekan, sohibqiron t u g ' i l g a n maskan Xo'ja Ilg'or qishlog'ining bugungi kunda Yakkabog' tumanida joylashganini aytadi. Shunday ekan, nega u manbalarda Shahrisabz yaqinida, Keshga qarashli, Shahrisabzga qarashli h u d u d s i f a t i d a keltiriladi?

U buni quyidagicha izohlaydi: "Bugungi kundagi Yakkabog' va Shahrisabz tumanlari O'rta asrlarda Kesh vohasi doirasida bitta hududiy birlik sifatida tilga olingan. Amir Temur tavallud topgan davrlarda Yakkabog' deb nom olgan alohida ma'muriy birlik mavjud emas edi. XVIII asrda shakllangan Yakkabog'bekligi esa Kesh (Shahrisabz) viloyatiga qarashli hudud bo'lgan. Shu jihatdan qaraganda, ko'plab tarixiy manbalar va adabiyotlarda Amir Temur tavallud topgan joy - bugungi Yakkabog' tumanidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'i Shahrisabz va Kesh nomlari bilan yonmayon keladi", deya ta'kidlaydi tarixshunos.

Yakkabog' viloyati (bekligi)ning paydo bo'lishi ashtarxoniyalar davriga (1601-1756), XVII-XVIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Yakkabog' qisqa muddatlarda Shahrisabz bilan goh siyosiy ittifoqda, goh uning ta'sirida, goh tarkibida bo'lgan ma'lum davrlar ham mavjud. Hatto 1920-yillarda ham Yakkabog'dagi Xo'ja Ilg'or qishlog'i Shahrisabz viloyatining Mo'minobod hududiga qarashli bo'lgan.

Beruniyning tugallanmagan asar



Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyni tabobat sohasiga oid asar yozishiga tabibrarning dorivor giyohlarni yaxshi tanimasligi, ularni bir-biridan ajrata olmasligi sabab bo'lgan ekan.

Mazkur asar "Saydana" nomi bilan mashhur bo'lib, "Kitob as-saydana fit-tib", ya'ni "Dorivor o'simliklar haqidagi kitob" deb nomlanadi.

Beruniyning yozishicha, bir kuni xorazmshoh Ma'mun betob bo'lib qoladi. Tabiblar uni ko'rib, kasallikni davolash maqsadida dorilar ro'yxatini yozib berishadi. Ro'yxatdagi bir dori Xorazmda topilmaydi. Nihoyat, izlangan dori bir attorda topilgach, o'n besh dirhamlik dorini besh yuz dirham kumush tangaga olib kelishadi.

Beruniy topib kelingan giyohni ko'rib, tabiblarga "Sizlar dori, ya'ni giyohni emas, balki uning nomini sotib olgansizlar", deydi. Alloma keltirilgan giyoh gulsafsa o'simligining ildiz poyasi ekanini, bu giyoh barcha zax joylarda o'sishini aytadi. Shundan so'ng Beruniy dorishunoslikka oid asar yozishni, fandagi bu chalkashliklarni bartaraf qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Nihoyat, umrining oxirgi yillarida Beruniy bu asarini yozadi, lekin u tugallanmay qolgan.

"Kitob as-saydana fit-tib"ning qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topilgan. "Saydana" nomi bilan mashhur bu asarda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini alifbo tartibida bergan.

Uning tabobatga oid boshqa asarlardan farqli tomoni

shundaki, Beruniy unda har bir o'simlikning o'sish joylari, belgilari, xususiyatlari, birining ikkinchisidan farqi, birining o'rniga ikkinchisini berish mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, u har bir dorivor o'simlikni fors, arab, rum, turk, hind va xorazm tillaridagi nomini, jami 30 dan ortiq til va lahjadagi 4 500 nomni qayd qiladi. Shu bilan birga, mahalliy dorivor o'simliklardan foydalanish kerakligini tavsiya etadi.

Bu asarda barcha dorivor giyohlar, minerallar va o'sha davr tibbiyotida qo'llaniladigan hayvonlarning a'zolari o'z aksini topgan. Shuning uchun ham bu asar dorishunoslik sohasida yaratilgan eng noyob asar hisoblanadi.

"Saydana"da 1 116 ta dorivor giyoh tavsiflanadi. Shundan 750 tasi o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, qolgan 265 tasi minerallardan iborat. Bularidan tashqari, 30 ta murakkab dori shakliga keltiradi.

"Saydana" asarining assosiy xususiyatlardan biri shundaki, unda Abu Rayhon Beruniy dorishunoslik alohida fan bo'lishini ta'kidlab, bu bilan farmakologiya fanini asoslaydi.

Internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

